

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYA

T. R. KUCHKAROV, M. M. XAYDAROV

JINOYAT HUQUQIDA TAMOM
BO'L MAGAN JINOYAT

O'quv-amaliy qo'llanma

Toshkent – 2016

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Tahririyat-noshirlilik hay’atida ma’qullangan*

T a q r i z c h i l a r :

yuridik fanlar nomzodi, dotsent **A.SH. Umarxonov;**

yuridik fanlar nomzodi **M.M. Qalandarov**

Kuchkarov T. R., Xaydarov M. M.

K – 98 Jinoyat huquqida tamom bo‘lмаган jinoyat: O‘quv-amaliy qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – 48 b.

Ushbu o‘quv-amaliy qo‘llanmada tamom bo‘lмаган jinoyat institutining huquqiy tartibga solinishi, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilishning farqlovchi belgilari, shuningdek jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishni belgilovchi qonun normalarining amalda qo‘llanilishi hamda tamom bo‘lмаган jinoyatlar bilan bog‘liq qilmishlarni kvalifikatsiya qiluvchi jinoiy-huquqiy belgilari tahlil qilingan.

Qo‘llanma huquqshunos olimlar va amaliyot xodimlari, yuridik ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, katta ilmiy xodim-izlanuvchi, mustaqil izlanuvchilarga, shuningdek tinglovchi, kursant va talabalarga mo‘ljallangan.

BBK 67.99(5U)8ya73

© O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016.

SO‘ZBOSHI

Bugungi kunda mamlakatimizda izchil davom etayotgan islohotlarni chuqurlashtirish va erkinlashtirish jarayonida sud-huquq sohasini yanada takomillashtirishga, ayniqsa jinoyat qonunchilagini yanada liberallashtirish va insonparvarlik tamoyillariga muvofiqlashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo‘nalishlaridan biri – bu qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir¹. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlaridan ushbu konseptual talablarni, shu qatorda sodir etilgan qilmishlarga qonun asosida to‘g‘ri huquqiy baho berish orqali odil sudlovni ta’minalash lozimligini talab etadi.

Ma’lumki, jinoyat inson xulq-atvorining muayyan turlaridan biri bo‘lib, makon va zamonda sodir etiladi hamda boshlangandan tamom bo‘lgunga qadar muayyan bosqichlarni bosib o‘tadi. Biroq har qanday jinoyat ham ma’lum vaqt oralig‘ida sodir etilgan jarayondan iborat bo‘lmasligi mumkin. Shunday bo‘lishiga qaramay, jinoyatlarning bir qismi sodir etilish jarayonida bir qator bosqichlarni bosib o‘tadi.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligiga ko‘ra qasddan jinoyat sodir etish bosqichlari: *jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish* va *jinoyat sodir etishga suiqasd qilishga* bo‘linadi. Biroq mazkur bosqichlarni baholashda sud-tergov amaliyotida hanuz ba’zi xatoliklarga yo‘l qo‘yilmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, ushbu qo‘llanmada jinoyat huquqida tamom bo‘lмаган jinoyat instituti bilan bog‘liq muammolar, uning o‘зига xос belgilari, shuningdek jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish bo‘yicha kvalifikatsiya qilish masalalari bat afsil tahlil qilingan. Bundan tashqari, qo‘llanmada mavzuga oid masalalar va test topshiriqlarining keltirilganligi bevosita o‘quvchilarning bu boradagi bilimlarini tekshirib ko‘rish imkonini beradi.

¹ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – Б.26.

Shu bilan birga, mazkur qo'llanmada O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlaridagi tamom bo'lмаган jinoyatlarni huquqiy baholash bilan bog'liq qoidalaridan keng foydalanilganligi bevosita tamom bo'lмаган jinoyatlarni huquqiy baholash bilan bog'liq amaliy bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Qo'llanma huquqshunos olimlar va amaliyat xodimlari, yuridik ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, katta ilmiy xodim-izlanuvchi, mustaqil izlanuvchilarga, shuningdek tinglovchi, kursant va talabalarga mo'ljallangan.

QASDDAN SODIR ETILGAN JINOYAT BOSQICHLARINING TUSHUNCHASI VA TURLARI

Shaxs muayyan qilmishni sodir etishidan avval unda mazkur qilmishni sodir etishga xohish-istik va biror maqsadga yo‘nalgan qasd yuzaga keladi. So‘ngra shaxs o‘z jinoiy niyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur shart-sharoit yaratadigan bosqich boshlanadi. Bunda uning xulq-atvori muayyan xatti-harakatlarda o‘z aksini topadi, biroq bu ham hali bevosita jinoyatni sodir etishning boshlanganligini bildirmaydi. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichi yakunlangach, shaxs o‘z jinoiy qilmishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan deb faraz qilgan holda, bevosita uni amalga oshirishga kirishadi. Mazkur jarayon, shaxs maqsad qilib qo‘ygan barcha qilmishlarini amalga oshirishi hamda ko‘zlagan maqsadiga yetishi bilan yakunlanadi.

Demak, jinoyat insonning har qanday faoliyati kabi rivojlanish jarayonida bir necha bosqichni bosib o‘tadi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) qasdning shakllanishi; 2) jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish; 3) jinoyat sodir etishga suiqasd qilish; 4) tamom bo‘lgan jinoyat. Biroq ta’kidlash joizki, qayd etilgan bosqichlarga ko‘ra jinoyat huquqiga oid hech qanday maxsus ko‘rsatmalar yo‘q. Mazkur bosqichlar tamom bo‘lgan yoki tamom bo‘lmagan jinoyatlar ko‘rinishidagina jinoyat huquqiga oid ahamiyatga ega bo‘lishi hamda jinoyat huquqiga oid toifaga kiritilishi mumkin. Ushbu ta’kid Jinoyat kodeksi 16-moddasining ikkinchi qismida belgilangan qoidaga asoslangan bo‘lib, unga ko‘ra, jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo‘lgan qilmishni sodir etish, jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi. Shu bois muayyan xatti-harakat yoki qilmishlarni sodir etish shaxsning jinoiy maqsadlarini amalga oshirishga kirishganini bildiradi hamda normativ dalillar bo‘lgan taqdirda unga jinoyat huquqiga oid ta’sir choralarini ko‘rish uchun faktik asos bo‘lib xizmat qiladi. Holbuki, qasdning shakllanishidan iborat bosqich, garchi u haqda ayon bo‘lgan taqdirda ham, jinoyat sodir etilishini tavsiflovchi jinoiy ahamiyatga ega bo‘lgan davrga kiritilmaydi, zero, u obyektiv voqelikdan tashqarida sodir etiladigan muayyan xatti-harakatlar, qilmishlardan iborat bo‘lmaydi.

Qasddan sodir etilgan jinoyat shaxsning ongli, irodaviy va aniq maqsadga yo‘naltirilgan xulq-atvoridan iborat xatti-harakatlar hisoblanadi. Jinoyat uzoq yoki qisqa davr ichida sodir etilishi mumkin. Shu bois jinoyat tarkibining obyektiv tomonini amalga oshirishdan oldin

shaxs ongida fikrlash jarayoni yuzaga kelib, kelgusida amalga oshiradigan jinoiy xatti-harakatlar rejasini tuzadi. Mazkur jarayonni qisqa qilib, *jinoiy qasdning shakllanishi* deb atash mumkin. Jinoiy qasdning shakllanish bosqichi jinoiy maqsadni aniqlash, unga erishish uchun shart-sharoitlarni anglash, jinoyatni sodir etish va keyinchalik uning izlarini yo‘qotish usullarini topish, jinoyatni sodir etishda ko‘maklashish uchun boshqa shaxslarga jalb etish imkoniyati va maqsadga muvofiqligi haqida fikr yuritish kabilarni qamrab oladi. Biroq bularning barchasi shaxs ongida bo‘lib o‘tadi.

Sud-tergov amaliyotidan ma’lumki, jinoyat sodir etishga qasd qilgan shaxs uni yashiradi. Lekin ko‘p hollarda shaxsning jinoyat sodir etish maqsadi boshqa shaxslarga ayon bo‘lib qoladi, ya’ni bu haqda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar beriladi yoki jamoatchilikka oshkor bo‘ladi yoxud shaxs o‘z fikrlarini boshqalar bilan bo‘lishganida atrofdagilar (qarindosh-urug‘, do‘sstar, tanish-bilish, qo‘ni-qo‘shni va boshq.)ga jinoyat sodir etishga qasd qilganligi haqida so‘zlab bergenidan so‘ng ayon bo‘ladi. Mazkur hol jinoyat huquqi nazariyasida *qasdni izhor qilish* deb atalib, unga shaxs ongida jinoyat sodir etish bo‘yicha tashqi yuzaga kelgan va shakllangan xohish-istik, maqsad deb ta’rif beriladi. Jinoiy qasd haqida o‘zgalarga bildirish esa shaxs tomonidan o‘z jinoiy maqsadlarini og‘zaki, yozma, konklyudent xatti-harakatlar, ya’ni imo-ishora, muayyan so‘z yoki tana harakatlari bilan boshqa shaxslarga xabar berish orqali amalga oshiriladi.

Amaldagi jinoyat qonunida jinoiy qasdni izhor qilish va u haqda bildirish uchun javobgarlik nazarda tutilmagan. Shu bois ularni jinoyatni sodir etish bosqichi sifatida emas, balki mazkur bosqichning amaliy ahamiyatini hisobga olgan holda jinoyat huquqi fani doirasida o‘rganish va tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Ushbu holatning amaliy ahamiyati jinoyat to‘g‘risidagi qasdning shakllanishi va uni izhor qilish, jinoyatni sodir etish bosqichlari sifatida emas, jinoyatning rivojlanish bosqichlari sifatida talqin qilinishidan iborat. Bu esa, o‘z navbatida, quyidagilarni aniqlashga imkon beradi: a) jinoiy va jinoiy bo‘limgan xulq-atvorni qat’iy huquqiy chegaralash (bu jinoyat uchun javobgarlikka tegishlilik yoki tegishli emaslik bilan bog‘liq muammoni hal qilish hamda sodir etilgan jinoyatga to‘g‘ri huquqiy baho berish imkonini beradi); b) ichki ishlar organlari hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning bo‘lg‘usi xodimlari, fuqarolar, ijtimoiy, davlat va boshqa tashkilot va muassasalar xodimlarini shaxsda jinoyatga qasd qilish maqsadining shakllanishi davrida sodir etilishi mumkin bo‘lgan

jinoyatning oldini olishga qaratish. Oxirgi jihat katta ahamiyatga ega bo‘lib, vakolatli organlarning u yoki bu shaxsning jinoyat sodir etishga qasd qilayotgani haqida turli manbalardan olingan xabarga o‘z vaqtida chora ko‘rishi, jinoyat huquqiga oid mexanizmni ishga solmagan holda jinoyat sodir etish imkoniyati, fuqarolar, davlat va jamiyatning qonun tomonidan muhofaza qilinayotgan huquq va manfaatlariga zarar yetkazilishi, jinoyat huquqiga oid munosabatlarning yuzaga kelishi, fuqarolar jinoiy javobgarlikka tortilishining oldini olishga imkon beradi.

Masalan, Toshkent shahri tumanlaridagi tezkor-qidiruv xizmat xodimlari Mirzo Ulug‘bek tumani Qorasuv dahasida yashovchi ikkita voyaga yetmagan o‘s米尔 sheriklari davrasida qaysidir jamg‘arma banki bo‘limlarining biridan pul o‘g‘irlab, unga musiqali markaz sotib olishga niyat qilganliklarini muhokama qilayotganliklari haqida xabar oladilar. O‘s米尔arda jinoyat sodir qilish uchun yuzaga kelgan qasd haqidagi bunday xabarga o‘z vaqtida chora ko‘rish hamda ichki ishlar idoralarining xodimlari tomonidan ota-onalar, jamoatchilik vakillari bilan profilaktik suhbatlar o‘tkazishi qonun tomonidan himoya qilinadigan munosabatlarga ziyon yetkazishning oldini olgan, shuningdek o‘s米尔arni jinoyat yo‘liga kirishidan saqlab qolgan bo‘lar edi.

Shunday qilib, qasdning yuzaga kelishi va uni izhor qilish jinoyatni sodir etish bosqichlariga kirmaydi. Aniq voqelikka aylanmagan jinoyatni sodir qilishga qasd qilish keng ommaga ayon bo‘lgan bo‘lsa-da, hali ijtimoiy xavfli qilmishni keltirib chiqarmaydi hamda jinoyat qonuni tomonidan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga hech qanday xavf tug‘dirmaydi.

Qasdni izhor qilishni boshqa ba’zi jinoyatlardan ajratish lozim, bunda jinoyat tarkibi obyektiv tomonining asosiy belgisi sifatida *jinoyat haqida axborot berish* mavjud bo‘ladi. U boshqa shaxslarga mazkur jinoyatni sodir etish haqida og‘zaki, yozma yoki boshqa shaklda ifodalangan axborot hamda ma’lumotlarni berishdan iboratdir. Chunonchi, axborot berish orqali o‘ldirish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish (JK 112-m.), farzandlikka olish sirini oshkor qilish (JK 125-m.), tuhmat (JK 139-m.), haqorat qilish (JK 140-m.), urushni targ‘ib qilish (JK 150-m.), O‘zbekiston Respublikasining amaldagi davlat tuzumini Konstitutsiyaga xilof tarzda o‘zgartirishga, hokimiyatni bosib olishga yoki qonuniy ravishda saylab qo‘yilgan yoki tayinlangan hokimiyat vakillarini hokimiyatdan chetlatishga yoxud O‘zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligini Konstitutsiyaga xilof tarzda buzishga ochiqdan-ochiq da’vat qilish (JK 159-m. 1-q.), tovlamachilik (JK 165-m.), raqobatchini

obro'sizlantirish (JK 192-m.) va boshqa bir qator jinoiy xatti-harakatlarni amalga oshirish mumkin.

Binobarin, qasdni izhor qilish hamda jinoyat haqida axborot berish bir-biridan farq qiladi. Qasdni izhor qilish boshqa shaxslarga bildirilgan axborot, shaxsda jinoyatni sodir etish haqida tashqi tomondan shakllangan maqsadni aks ettiradi, bu esa uni jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'la olmaydi. Jinoyat haqida axborot berish esa jabrlanuvchiga noqonuniy tarzda zo'rlik bilan ruhiy ta'sir o'tkazish yoxud qonunga xilof ravishda u yoki bu axborot va ma'lumotlarni tarqatishdan iborat bo'ladi. Shu bois u jinoyat qonunida huquqiy muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga xavf soluvchi qilmishlar qatoriga kiritilgan.

Axborot tarqatish bilan bog'liq xatti-harakatlar jinoyat qonunida ikkita alohida turga bo'linadi. Birinchisi, mustaqil jinoyat sifatida belgilangan bo'lib (masalan, o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqtish), ikkinchisi boshqa jinoyatni sodir etish usuli sifatida qaraladi (masalan, tovlamachilik, bosqinchilik jinoyatlarini sodir etishda).

Jinoyatni sodir etish bosqichlarini ajratish, ularni tashkil qiluvchi qilmishlar orasidagi o'xshashlik bilan emas, balki turli darajada jinoiy maqsadni amalga oshirish bilan ham bog'liqdir. Chunonchi, jinoyatni sodir etishga tayyorgarlik ko'rishdagi turli xatti-harakatlarni yagona maqsad – dastlab jinoyatni sodir etish, keyinchalik esa jinoyatni yashirish uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish birlashtiradi. Shunday bo'lsa-da, jinoyatni sodir etishga tayyorgarlik ko'rish bosqichida qilinadigan xatti-harakatlar bevosita muayyan jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi xatti-harakatlar qatoriga kirmaydi. Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish bosqichiga kelsak, ular jinoyatdagi obyektiv tomonning konstruktiv alomatlaridan iborat bo'lib, jinoyat sodir etishga suiqasd qilishning boshlanishini hamda shu vaqtning o'zida jinoyat sodir etishning boshlanishini ta'riflaydi.

Jinoyatdagi obyektiv tomonning o'ziga xosligi undagi obyektiv va subyektiv tomonlarning o'zaro bog'liqligi hamda bir-birini taqozo etishidan kelib chiqqan holda, jinoyatni sodir etish bosqichlari jinoiy maqsadni amalga oshirish darajalariga ajratiladi. Basharti, jinoiy maqsad jinoyatga tayyorgarlik ko'rish bosqichida jinoyatni sodir etish va kelgusida uni yashirish uchun shart-sharoit yaratishga qaratilgan jinoiy xatti-harakatlarni sodir etish darajasida amalga oshirilsa, u holda jinoyat sodir etishga suiqasd qilish bosqichida jinoiy maqsadni amalga oshirish darjasini eng yuqori bo'ladi. Zero, jinoiy maqsad jinoyatning obyektiv tomonini tashkil qiluvchi muayyan xatti-harakatlarda namoyon bo'la

boshlaydi. Chunonchi, jinoyatning tamom bo‘lish bosqichi sifat darajasiga egadir, zero u muayyan jinoyatdagi obyektiv belgilarning to‘la amalga oshirilishi bilan bog‘liq bo‘lib, shaxsning o‘z jinoiy maqsadini to‘liq amalga oshirganligini bildiradi.

Bunga asoslangan holda, avvalgi ikki bosqichni «*tamom bo‘lman jinoyat*» tushunchasi orqali ifodalash mumkin. Binobarin, ulardagi o‘ziga xoslik aynan jinoyatda namoyon bo‘ladi. Mazkur bosqichlarda jinoyatning majburiy tugallanishi jinoyat sodir etayotgan shaxsga bog‘liq bo‘lman holda tamom bo‘lgan jinoyat uchun jinoiy javobgarlik tayinlash asoslariga bog‘liq masalani hal qilishni talab etadi. Tamom bo‘lgan jinoyat esa, aksincha, muayyan jinoyat tarkibidagi zaruriy belgilarga ega bo‘lgan holda sodir etilishi davomida jinoiy qasd vujudga kelganidan boshlab, real voqelikda amalga oshirilishiga qadar barcha bosqichlarni bosib o‘tadi. Tamom bo‘lgan jinoyat uchun jinoiy javobgarlik umumiylashtirish asoslarda tayinlanadi.

Shunday qilib, jinoyat o‘z rivojlanishi jarayonida yuqorida aytib o‘tilgan barcha bosqichlarni bosib o‘tsa, jinoiy-huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan qilmish hisoblanadi. Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyatni sodir etish bosqichlari uchta bosqichga bo‘linadi.

Jinoyatni sodir etish bosqichi deganda, qasddan sodir etilgan jinoyatning muayyan bosqichlari tushuniladi. Ular sodir etilayotgan qilmishlar (harakat yoki harakatsizlik) xususiyatiga ko‘ra sifat jihatidan ajratiladi hamda aybdor tomonidan jinoiy qasdni amalga oshirishning turli darajasini aks ettiradi.

Jinoyat sodir etish bosqichlari quyidagilardan iborat:

- 1) jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish;
- 2) jinoyat sodir etishga suiqasd qilish;
- 3) tamom bo‘lgan jinoyat.

Jinoyat huquqi ta’limotida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish «*dastlabki jinoiy faoliyat bosqichlari*» sifatida ta’riflanadi. O‘ylaymizki, mazkur tushunchani qo‘llash qonunga xilof va xatodir, chunki u tahlil qilinayotgan huquqiy hodisaning mohiyatini aks ettirmaydi. *Birinchidan*, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish jinoyat huquqiga oid ahamiyatga ega bo‘lib, jinoyat aynan mana shu bosqichlarda majburan tugallangan, ya’ni uzilgan hollardagina mustaqil ravishda jinoiy javobgarlikka tortiladi. *Ikkinchidan*, shaxsning muayyan jinoyat tarkibini to‘liq bajarishi tamom bo‘lgan jinoyatni tashkil qiladi. Binobarin, mazkur jinoyat sodir etilishida barcha bosqichlardan o‘tilgan bo‘lsa-da, ularni alohida qismlarga bo‘lish

maqsadga muvofiq emas, zero u yagona bir butunlikni tashkil qiladi. Demak, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilishni «jinoiy faoliyatning muqaddimasi» deyish noto‘g‘ridir, chunki ular bu faoliyatning tarkibiy qismidir.

Jinoyat huquqi nazariyasi va amaliy faoliyatda tamom bo‘lmagan jinoyat mavjud bo‘lgan jinoyatlar doirasini aniqlashda katta ahamiyatga egadir. Shunga ko‘ra, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish haqidagi normalarni qo‘llash masalasi hal qilinadi.

Jinoyat obyektiv va subyektiv belgilar yig‘indisidan iborat bo‘lib, ularning mavjudligi real voqelikda o‘zaro uzviy bog‘liqlik va aloqadorlikdan kelib chiqqan holda jinoyat huquqiga oid choralarini qo‘llash uchun asos bo‘ldi. Shu bois shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun obyektiv voqelikda ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etganligining o‘zi yetarli emas. Mazkur jinoyat subyektiv tomondan aybli, ya’ni qasddan yoki ehtiyyotsizlik orqasida sodir etilgan bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, jinoyatlar bir paytda yoki turli vaqt ichida sodir etilishi, oddiy va murakkab bo‘lishi, bir vaqtning o‘zida sodir etilishi yoki muayyan jarayonni o‘z ichiga olishi mumkin.

Jinoiy qilmish muayyan vaqt oralig‘ida bo‘lgan hollarda, odatda u biror maqsadga yo‘naltirilgan xulq-atvordan iborat jarayonni tashkil qiladi. Mazkur jarayon muayyan xohish-istik asosida shakllangan jinoiy maqsadning shakllanishidan boshlab, uni real voqelikda ijro etishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi.

Qasddan sodir etilgan jinoyatlarga jinoiy qilmishni bila turib amalgalash xos bo‘lganligi bois, jinoiy niyatni amalgalash xohish jarayonida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan bosqichlarni aynan shu turdagilashda tegishli ravishda sharhlash lozim. Demak, bosqichmabosqich rivojlanishi mumkin bo‘lgan jinoyatlar doirasiga faqat qasddan sodir etilgan jinoyatlar kiradi, deb xulosa chiqarish mumkin. Mazkur xulosa ehtiyyotsizlik orqali sodir etiladigan jinoyatlarda bosqichlarga ajratishning imkoniy yo‘qligidan kelib chiqadi.

Shaxs o‘z harakatlari qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko‘zi yetmasa-da (jinoyatga beparvolik) yoki ko‘zi yeta turib, ehtiyyotkorlik chora-tadbirlariga ongli ravishda rioya etmagan holda bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qilsa (o‘z-o‘ziga ishonish), bunday jinoyatlar ehtiyyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatlar deb ataladi. Biroq, mazkur turdagilashda jinoyatlar ham bosqichlarga ajratilmaydi, zero ularga jinoiy maqsadning shakllanishini keltirib chiqaruvchi dastlabki motivasiya (sabab, maqsad) mo‘ljallangan natijaga erishish uchun ongli ravishda usul

va vositalarni tanlash xos emas. Xususan, ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatlar muayyan vaziyatga bog'liq bo'lib, ularni amalga oshirish uchun avvaldan tayyorgarlik ko'rilmaydi.

Jinoyat qonunchiliga muvofiq (JK 21-m.), obyektiv tomoni zaruriy belgi sifatida jinoiy oqibatni o'z ichiga olgan qasddan sodir etiladigan jinoyatlar to'g'ri yoki egri qasd bilan sodir etilgan bo'lishi mumkin. Shu bois mazkur turdag'i qasd bilan sodir etilgan jinoyatlarni bosqichlarga ajratib tahlil qilish imkonini ko'rib chiqish lozim.

Jinoyat sodir etishda to'g'ri yoki egri qasddan ko'zlangan xohish-istak orasidagi farq xususiyatiga ko'ra ajratiladi. To'g'ri qasdga jinoiy oqibatlarning kelib chiqishini xohlash, egri qasdga esa mazkur oqibatlarga ongli ravishda yo'l qo'yish xosdir. Demak, to'g'ri qasdga subyektning xohish-istaklari shaxsning o'z aqliy qobiliyati va imkoniyatlarini ko'zlangan maqsadga erishish uchun yo'naltirganligida namoyon bo'ladi. Binobarin, to'g'ri qasddan iborat bo'lgan jinoyatlar bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin, zero mazkur bosqichlarning har birida aybdorning o'zi istagan jinoiy oqibatlarga erishish uchun maqsadli xatti-harakati mavjud bo'ladi.

Egri qasd orqali sodir etiladigan jinoyatlarga jinoyat sodir etayotgan shaxsning o'z qilmishlarining ijtimoiy xavflilagini anglashi, jinoyat sodir etilishi natijasida yuzaga keladigan jinoiy oqibatlarni oldindan ko'ra bilishi hamda ularning yuz berishini ongli ravishda istashi xosdir. Egri qasdning aqliy va irodaviy belgilariga berilgan mazkur ta'rifga asoslangan holda, egri qasd bilan jinoyat sodir etayotgan subyektning maqsadi ongli ravishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hamda yuzaga kelishi jinoiy xatti-harakatning zaruriy sharti sifatida kutiladigan jinoiy oqibatni to'g'ridan-to'g'ri ko'zlamaydi, deb xulosa qilish mumkin. Binobarin, jinoiy oqibatlarning yuzaga kelishiga ongli ravishda yo'l qo'yiladigan, biroq istalgan maqsad sifatida ko'zlanmaydigan egri qasddan sodir etiladigan jinoyatlarda jinoyat bosqichlarining mavjud bo'lishini qayd etish maqsadga muvofiq emas.

Demak, subyektiv tomonidan jinoyat bosqichlari faqat to'g'ri qasddan sodir etiladigan jinoyatlarda bo'lishi mumkin.

Jinoyat huquqiga oid normalar va tergov-sud amaliyotini tahlil qilish to'g'ri qasd bilan sodir qilinadigan jinoyatlarning hammasida ham jinoiy qilmish bosqichlarga bo'linmasligini ko'rsatmoqda. Mazkur xulosa jinoyatlar tarkibining huquqiy konstruksiyasi (tuzilishi) hamda ulardagi obyektiv tomonning xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Qonun tuzilishiga ko‘ra, barcha jinoyatlar tarkibi formal (rasmiy) va moddiy tarkiblarga bo‘linadi.

Formal tarkibli jinoyatlar tarkibiga jinoiy oqibat yuzaga kelishi yoki kelmasligidan qat’i nazar, ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) amalga oshirilgan paytdan boshlab tugallangan jinoyatlar kiradi (masalan, JKning 124, 126, 150, 179-m. va b.).

Moddiy tarkibli jinoyatlar tarkibiga jinoiy oqibat yuzaga kelgan paytdan boshlab tugallangan hamda sodir etilgan ijtimoiy qilmish bilan sababiy bog‘liqlikka ega bo‘lgan jinoyatlar kiradi.

Jinoyatlar tarkibini tuzilishiga ko‘ra ajratish bevosita jinoyatni sodir etishda muayyan bosqichlarning ham formal, ham moddiy tarkibini aniqlashga imkon beradi.

Moddiy tarkibli qasd bilan sodir etilgan jinoyatlarda jinoiy faoliyat qonunda nazarda tutilgan barcha bosqichlarni bosib o‘tadi va bu jinoyat istalgan bosqichda tugallanishi mumkin. Chunonchi, o‘zganing uy-joyiga g‘ayriqonuniy ravishda kirib, o‘g‘rilik qilishga qasd qilgan shaxs (JK 169-m. 2-q. «g» b.) avval bir qator tayyorgarlik ishlarini amalga oshirishi lozim.

Masalan, uy-joyga kirish uchun qurol va vositalarni tayyorlashi, uy-joyda yashovchilar hamda ularning kunning qaysi vaqtida uyda bo‘lmasliklari haqida dastlabki ma’lumotga ega bo‘lishi, signalizasiya hamda o‘zganing mulkini o‘g‘irlashga to‘sinqinlik qilishi mumkin bo‘lgan boshqa to‘silalar (uy hayvonlari)ning yo‘qligiga ishonch hosil qilishi kerak. Barcha tayyorgarlik ishlari ko‘rib bo‘lingach, shaxs bevosita uy-joyga kirish, qimmatbaho buyum va ashyolarni izlash hamda ularni o‘g‘irlash bilan mashg‘ul bo‘ladi. Jinoyat talon-toroj qilingan mulkdan foydalanish imkoniyati paydo bo‘lgan vaqtadan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Aynan shu xatti-harakatlar sodir qilinganidan so‘ng o‘zganing mulkini qonunga xilof ravishda o‘g‘irlash bilan bog‘liq jinoyatni tugallangan jinoyat deb tan olish mumkin. Biroq, mazkur bosqichlarning birida shaxsning jinoiy qilmishini ichki ishlar organlarining xodimlari yoki fuqarolar to‘xtatib qolgan bo‘lsalar, mazkur qilmish o‘zganing mulkini o‘g‘irlashga tayyorgarlik ko‘rish yoki o‘g‘irlashga suiqasd qilish sifatida huquqiy baholanadi.

Formal tarkibli qasddan sodir etilgan jinoyatlarda jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichi bu turdagи barcha jinoyatlarda bo‘ladi. Qonunda tayyorgarlik harakatlari tugallangan jinoyat deb belgilangan jinoyatlar bundan mustasno. Chunonchi, Jinoyat kodeksi 242-modda-

sining birinchi qismiga binoan, jinoiy uyushma tashkil qilishning o‘ziga jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan bo‘lib, u jinoiy faoliyat yuritish boshlangan yoki boshlanmaganligidan qat’i nazar, tugallangan jinoyat hisoblanadi.

Formal tarkibli jinoyatlar ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgandan boshlab tugallangan jinoyat hisoblanganligi bois, ularda jinoyat sodir etishga suiqasd qilish bosqichi bo‘lmaydi degan xulosaga kelish noo‘rindir. Chunki, formal tarkibli jinoyatlardagi obyektiv tomonning tuzilishini hisobga olgan holda bu kabi jinoyatlarning ba’zilarida jinoyat qilishga suiqasd qilish mavjud bo‘ladi. Bu murakkab tarkibli jinoyatlarda, ya’ni jinoyat ikki yoki undan ortiq xatti-harakat bilan bog‘liq jinoyatlarda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lib, ularning yig‘indisi jinoiy jazoga loyiq qilmish hisoblanadi.

Masalan, nomusga tegish (JK 118-m. 1-q.) jinoyati normaning obyektiv tomon tuzilishiga ko‘ra bir nechta qilmishlarning ketma-ketlikda sodir etilishi bilan shartlanadi. Bunday jinoyatlarda normada keltirilgan birinchi obyektiv tomon qilmishi sodir etilishi bilan, normada ko‘rsatilgan ikkinchi obyektiv tomon qilmishini sodir etish o‘rtasidagi davriylik jinoyatga suiqasd qilish bosqichi hisoblanadi. Bu esa, aynan birinchi ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etib, ikkinchi ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etishga ulgurmaganligi yoki majburan to‘xtatilganligi jinoyat sodir etishga suiqasd deb baholanishi lozim.

Ma’lumki, *jinoyatning boshlanishi deganda*, normada nazarda tutilgan obyektiv tomon qilmishi (yoki qilmishlari)ning ma’lum bir qismi sodir etilishining boshlanishi tushuniladi.

Nomusga tegish jinoyatini obyektiv tomon tuzilishi bo‘yicha tahlil qilganimizda esa uning ikkita tizimli qilmishlar orqali sodir etilishini anglash mumkin. Ya’ni, birinchi qilmish sifatida – «zo‘rlik ishlatish, qo‘rqitish yoki jabrlanuvchining ojizligidan foydalanish» kabi muqobil harakatlar bo‘lsa va ikkinchi qilmish sifatida esa – jinsiy aloqa qilishni tushunish lozim. Aynan mazkur qilmishlarning majmui sodir etilgan jinoyatga tugallangan jinoyat sifatida baho berishga asos bo‘ladi. Basharti shaxs zo‘rlik ishlatishni boshlasa-yu, lekin o‘ziga bog‘liq bo‘laman holda, jabrlanuvchi bilan jinsiy aloqa qila olmagan bo‘lsa, sodir etilgan jinoyat nomusga tegishga suiqasd sifatida baholanishi kerak.

Shu bilan birga, formal tarkibli jinoyatlarda faktik xatoga yo‘l qo‘yilgan hollarda qilmish jinoyat sodir etishga suiqasd qilish deb baholanishi lozim.

Masalan, shaxs nomusga tegish jinoyatida 18 yoshga to‘lgan jabrlanuvchini 14 yoshga to‘lman deb noto‘g‘ri o‘ylaganligi sababli uning nomusiga tekkanligi holati faktik xato sifatida baholanib, qilmish 14 yoshga to‘lman shaxsning nomusiga tegish jinoyatini sodir etishga suiqasd qilish (JK 25-m. 2-q. va 118-m. 4-q.) kabi baholanadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, o‘ziga xos «kesik» tarkibli jinoyatlar muammosiga to‘xtalish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tushuncha asosan XX asrning 40-yillaridan boshlab jinoyat qonuniga oid darslik va sharhlarda berila boshladi. «*Kesik*» jinoyat tarkibi deganda, qonunda jinoyatga suiqasd qilish yoki jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rishdan boshlab tugallangan jinoyat deb hisoblanadigan jinoyatlar tushuniladi¹.

«Kesik» jinoyat tarkibiga berilgan mazkur ta’rifdan kelib chiqqan holda ko‘p olimlar ularni moddiy jinoyat tarkiblari bilan birga huquqiy tartibga ko‘ra jinoyat tarkiblarini tasniflash qatoriga kiritadilar.

Biz to‘laligicha mazkur nuqtai nazarga qo‘shilamiz hamda u yoki bu ijtimoiy munosabatlarga xavf tug‘diruvchi jinoyatlarni huquqiy tuzilishiga ko‘ra formal jinoyatlar tarkibiga kiritish mumkin deb hisoblaymiz. Biroq, «kesik» jinoyatlar tarkiblari real voqelikda sodir bo‘lmasa-da, unda nima sababdan ularni nazariy jihatdan ajratib ko‘rsatish kerak degan o‘rinli savol tug‘iladi. Bundan tashqari, bunday jinoyat tarkiblarining amaliy ahamiyati nimadan iborat, balki bular oddiy nazariy «chechinishlardir» degan savolga javob berish bundan ham muhimroqdir.

O‘ylaymizki, «kesik» jinoyat tarkiblari mavjud bo‘lishi kerak, ammo bu ularga ko‘pchilik yuristlar tomonidan berilgan ta’rifdan yoki jinoyatning tamom bo‘lish vaqtini belgilash muammosi nuqtai nazaridan qilinishi kerak emas. «Kesik» jinoyat tarkibini aslo tugallanmagan jinoiy xatti-harakatga «bog‘lab» bo‘lmaydi, aksincha, mazkur muammo boshqa nuqtai nazardan hal qilinishi kerak.

«Kesik» jinoyatlar tarkibiga ko‘pincha ommaviy tartibsizliklar, bosqinchilik kabi jinoyatlarni kiritadilar. Ta’kidlash joizki, bosqinchilikka hozirgi jinoyat qonunida berilgan ta’rif 1959-yilgi Jinoyat kodeksida berilgan ta’rifga o‘xshamaydi. Chunki ularga hozirgi vaqtgacha bir qator tuzatishlar kiritilgan. Biroq bu jinoyatlarning ayrim turlari «kesik» jinoyat ekanligini inkor etmaydi. Zero, jinoyatning «kesikligi» nafaqat mazkur

¹ Уголовное право России. Общая часть. – Казань, 1994. – С. 213.; Гаухман Л.Д. Квалификация преступлений: закон, теория, практика. – М., 2003. – С. 55.

jinoyatlarni qaysi vaqtidan boshlab tamom bo‘lgan deb hisoblanishiga, balki qonunda mustaqil jinoyatlar deb ta’rif berilgan hamda tamom bo‘lgan jinoyat bosqichida sodir etilgan jinoiy qilmishlarning keyinchalik qay tarzda kvalifikasiya qilinishiga ham bog‘liqdir.

«Kesik» jinoyat tarkiblarining o‘ziga xosligi shundaki, ular amaliy yo‘nalishga ega bo‘lib, muayyan jinoyat tarkibini hosil qiluvchi u yoki bu jinoiy qilmishlar sodir etilganida ularning mustaqil ravishda baholanishga muhtoj emasligi va umuman olganda, aynan shu norma asosida kvalifikasiya qilinishidan iborat. Xuddi shu xususiyatga ko‘ra «kesik» jinoyatlarni «formal» jinoyatlardan ajratish mumkin. Zero, formal jinoyatlar boshqa jinoiy xatti-harakatlarni o‘z ichiga olmaydi, bu esa, o‘z navbatida, tegishlicha mustaqil kvalifikasiya qilishni talab etadi.

Chunonchi, Jinoyat kodeksining 151-moddasida agressiya bilan bog‘liq jinoyatning asosiy tarkibi sifatida bosqinchilik urushini rejalashtirish yoki unga tayyorgarlik ko‘rish, shuningdek bu kabi xatti-harakatlarni amalga oshirish bo‘yicha fitnada qatnashish (mazkur moddaning 1-q.) hamda javobgarlikni og‘irlashtiruvchi jinoyat tarkibi sifatida bosqinchilik urushini boshlash yoki uni olib borish nazarda tutilgan (2-q.). Binobarin, qonunda javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holati sifatida agressiya urushining boshlanishi nazarda tutiladi. Agressiya urushini boshlash va davom ettirish, shubhasiz insoniyatga qarshi boshqa turdagи jinoyatlarning sodir etilishini nazarda tutadi. Bular odam o‘ldirish, aholini qirib tashlash, qullikka olish, surgun qilish hamda aholiga nisbatan qilinadigan boshqa shafqatsizliklardan iborat bo‘lib, ular Jinoyat kodeksi Maxsus qismining aniq moddalarida mustaqil jinoyatlar sifatida belgilangan. Biroq ular mustaqil kvalifikasiyani talab qilmaydi, chunki mazkur «kesik» jinoyatlar tarkibi barcha yuqorida nazarda tutilgan jinoiy qilmishlarni qamrab oladi.

Jinoiy uyushma tashkilotchilariga jinoyat huquqiga muvofiq ta’rif berish masalasi ham shu kabi hal qilinadi. Zero, tashkilotchilar jinoiy uyushma tashkil etish bilan bog‘liq jinoyatlardan qat’i nazar, Jinoyat kodeksi 242-moddasining birinchi qismiga binoan kvalifikasiya qilinadi, aksincha, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining boshqa moddalariga ko‘ra, qo‘sishimcha ravishda kvalifikasiya qilishni talab etmaydi. Talonchilik jinoyatining tarkibini ham «kesik» jinoyat tarkibi sifatida ko‘rib chiqish kerak, chunki u o‘zganing mulkini talon-toroj qilish maqsadida hujum qilish vaqtidan boshlab tugallangan jinoyat deb hisoblanadi va haqiqatan yuzaga kelgan jinoiy oqibat (masalan, og‘ir shikast yetkazish) yoki Jinoyat kodeksi 164-moddasida nazarda tutilgan jinoyat alomatlarini

(qurol-yarog‘ ishlatib yoxud qurol-yarog‘ sifatida boshqa buyumlardan foydalangan holda bir guruh shaxslar tomonidan avvaldan til biriktirib jinoyat sodir etish kabilarni) o‘z ichiga oladi. Talonchilik jinoyati tarkibining kesikligi aybdorning o‘zga shaxs mulkini talon-toroj qilganligi va bu qilmish jinoyat qonunining boshqa normasi bilan birga qo‘srimcha ravishda kvalifikasiya qilinmasligida o‘z ifodasini topadi.

Jinoyat qonunida tugallangan jinoyat bosqichida sodir etilgan jinoyatlarni qamrab oluvchi «to‘laligicha kesik» jinoyat tarkibi bilan birga «qisman kesik» jinoyat tarkiblari ham mavjud.

Qisman kesik jinoyat tarkibiga keyinchalik sodir etilgan jinoyatlarni to‘liq qamrab olmaydigan jinoyatlar kiradi. Ular, o‘z navbatida, alohida huquqiy ta’rif berilishini talab etadi. Yuqorida qayd etilgan talonchilik aynan «qisman kesik» jinoyatlar tarkibiga kiradi. Basharti, o‘zganing mol-mulkini talon-toroj qilish xatti-harakati jabrlanuvchining o‘limiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, sodir etilgan qilmish nafaqat Jinoyat kodeksining 164-moddasi, balki 97-moddasi bo‘yicha ham kvalifikasiya qilinadi. Shuningdek, ommaviy tartibsizlik JK 244-moddasida nazarda tutilgan jinoyati ham shu tariqa kvalifikasiya qilinadi. Zero, bunday qilmishlarni sodir etish natijasida odam o‘limiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, sodir etilgan jinoyat Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining «e» bandiga muvofiq kvalifikasiya qilinishi kerak. Zo‘ravonlik oqibatida turli darajadagi tan jarohatlarining yetkazilishi, ommaviy tartibbuzarlik jinoyat tarkibi bilan to‘liq qamrab olinishi bois, inson salomatligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar bo‘yicha qo‘srimcha ravishda kvalifikasiya qilishni talab qilmaydi.

Formal jinoyatlar tarkibiga kelsak, ular asosan «kesik» jinoyat tarkiblaridan ularda sodir etilgan qilmish doim jinoyatlar majmui bo‘yicha kvalifikasiya qilinishi bilan ajralib turadi (basharti, mazkur qilmishlar qonunda asosiy kvalifikasiya qiluvchi belgi sifatida nazarda tutilmagan bo‘lsa). Chunonchi, o‘n olti yoshga to‘limgan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar og‘ir tan jarohati yetkazilishiga sabab bo‘lsa, sodir etilgan qilmish Jinoyat kodeksining 104 va 129-moddalariga muvofiq kvalifikasiya qilinadi.

Shunday qilib, kesik jinoyatlar tarkibi muammosi qasddan sodir etilgan jinoyat bosqichlari ta’limotiga ko‘ra emas, aksincha, jinoyatlarni kvalifikasiya qilish nazariyasi doirasida tahlil qilinishi kerak.

«Tugallangan jinoyat» tushunchasi jinoyat qonunida bevosita mavjud emas, chunki Jinoyat kodeksi Maxsus qismining barcha moddalari tugallangan jinoyat tarkiblarini o‘z ichiga olgan. Shuni hisobga olgan

holda, *tamom bo‘lgan jinoyat deganda*, shaxs qilmishida Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalarining dispozitsiyalarida nazarda tutilgan muayyan jinoyat tarkibidagi barcha zaruriy obyektiv va subyektiv belgilarning mavjudligini tushunish lozim. Demak, muayyan jinoyatning tugallanishi bevosita qonunda belgilangan bo‘lib, jinoyat tarkibining huquqiy tuzilishiga (formal tarkib, moddiy tarkib), shuningdek muayyan jinoyat tarkibiga qonunda berilgan huquqiy bahoga (oddiy tarkib, murakkab tarkib va uning turlari) bog‘liq bo‘ladi. Tugallangan jinoyat uchun jinoiy javobgarlik Jinoyat kodeksi Maxsus qismining aniq moddasi yoki uning qismlarida belgilangan.

Tamom bo‘limgan jinoyat sodir etilganida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilish uchun jinoiy javobgarlik asoslarini belgilash zarurati yuzaga keladi. Mazkur zarurat Jinoyat kodeksi 16-moddasining ikkinchi qismi bo‘yicha jinoiy javobgarlik uchun nazarda tutilgan qoida tamom bo‘lgan jinoyatlarga tegishliligi tufayli paydo bo‘lgan. Zero, Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan (normativ asos) jinoyat tarkibining barcha alomatlari (faktik asos) mavjud bo‘lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi.

Avval tavsiya etilgan materiallardan ma’lumki, muayyan jinoyat tarkibining belgilari Jinoyat kodeksining Maxsus qismida tamom bo‘lgan jinoyat sifatida talqin qilinadi. Jinoyatning u yoki bu yaqqol belgilari bo‘limgan hamda jinoiy qasd to‘laligicha amalga oshirilmagan bo‘lsa, bunda jinoyat tamom bo‘limgan jinoyat hisoblanadi. Biroq, qonunda tamom bo‘limgan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan degan fikr tug‘iladi. Vaholanki, bunday fikrga kelish xatodir. Chunki bunda, eng avvalo, tizimlilik, qonunchilikda an’anaviy shakllangan jinoyat normalarning tarkibiy qurilishi prinsiplari, jinoyat qonunining Umumiyligi va Maxsus qismlarining o‘zaro bog‘liqligi hisobga olinmaydi.

Shu bois tamom bo‘limgan jinoyat uchun jinoiy javobgarlik belgilanganida nafaqat Jinoyat kodeksining tamom bo‘lgan jinoyatlar belgilarini nazarda tutuvchi Maxsus qismidan, balki tamom bo‘limgan jinoyatlarning obyektiv va subyektiv tomonlari, ya’ni jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilishni nazarda tutgan Jinoyat kodeksining 25-moddasidagi qoidalardan ham foydalanish zarur. Chunonchi, mazkur moddada shaxsga bog‘liq bo‘limgan holatlarga ko‘ra oxiriga yetkazilmagan, ya’ni tamom bo‘limgan jinoyat uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutiladi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilish tamom bo‘limgan jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka asos bo‘lib, u

Jinoyat kodeksi 25-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida belgilangan. Shu sababli tamom bo‘lmagan jinoyatga huquqiy baho berishda Jinoyat kodeksining 16-moddasi bilan bir qatorda Jinoyat kodeksining Umumiy qismidagi 25-moddaga ham murojaat etish zarur. Mazkur ikki modda birgalikda tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik tayinlashning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilishni kvalifikasiya qilishda Jinoyat kodeksi 25-moddasining birinchi va ikkinchi qismini hamda Maxsus qismidagi muayyan turdag'i tamom bo‘lgan jinoyat nazarda tutilgan tegishli moddani qo‘llash zarur. Zero, tamom bo‘lmagan jinoyat tarkibining belgilari Jinoyat kodeksining ham Umumiy, ham Maxsus qismida nazarda tutilgan. Chunonchi, og‘irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holatlarsiz qasddan odam o‘ldirishga tayyorgarlik ko‘rish Jinoyat kodeksi 25-moddasining birinchi qismi va 97-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan tamom bo‘lmagan jinoyat tarkibi belgilariga, o‘g‘rilikka suiqasd qilish esa Jinoyat kodeksi 25-moddasining ikkinchi qismi va 169-moddasining birinchi qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

JINOYATGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA JINOYAT SODIR ETISHGA SUIQASD QILISH

25-modda. Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish

Shaxsning qasddan qilinadigan jinoyatni sodir etish yoki yashirish uchun shart-sharoit yaratuvchi qilmishi o'ziga bog'liq bo'lman holatlarga ko'ra sodir etilishi boshlangunga qadar to'xtatilgan bo'lsa, bunday qilmish jinoyatga tayyorgarlik ko'rish deb topiladi.

Qasddan sodir etiladigan jinoyat boshlanib, shaxsga bog'liq bo'lman holatlarga ko'ra oxiriga yetkazilmagan bo'lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd deb topiladi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik va jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun javobgarlik ham ushbu Kodeks Maxsus qismining tamom bo'lgan jinoyat uchun javobgarlikni belgilovchi moddasiga muvofiq hal qilinadi.

1. Jinoyat inson xulq-atvorining muayyan turlaridan biri bo'lib, makon va zamonda sodir etiladi hamda boshlangandan tamom bo'lgunga qadar muayyan bosqichlarni bosib o'tadi. Mazkur bosqichlar bir-biridan sodir etilayotgan qilmishning xususiyati va mazmuniga, shuningdek jinoiy qilmishning tamomlanganlik darajasiga ko'ra farq qiladi.

Tamom bo'lgan jinoyat uchun jinoiy javobgarlik Jinoyat kodeksi Maxsus qismining aniq moddasi yoki uning qismlari (bandlari)da belgilangan.

Sharhlanayotgan moddada esa tamom bo'lman jinoyatning quyidagi bosqichlari belgilangan:

- jinoyatga tayyorgarlik ko'rish;
- jinoyat sodir etishga suiqasd qilish.

2. Jinoyat qonuniga ko'ra qasdning shakllanishi va aniqlanishi jinoyat sodir etish bosqichi sifatida nazarda tutilmagan. Shunday ekan, shaxsda jinoiy qasd mavjudligining aniqlanishi uni jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'lmaydi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish faqat qasddan sodir etiladigan jinoyatlardagina bo'lishi mumkin.

3. Sharhlanayotgan moddaning birinchi qismida jinoyatga tayyorgarlik ko'rish tushunchasi belgilangan bo'lib, unga ko'ra, jinoyatni sodir etish bosqichida jinoiy qasdni amalga oshirish boshlanib, shaxs muayyan harakatlarni bajarishga kirishadi yoki, aksincha, o'ziga yuklatilgan

vazifani bajarishdan to‘xtaydi (harakatsizlik). Bu esa, o‘z navbatida, jinoyat sodir etish uchun yoki uni keyinchalik yashirish uchun muayyan shart-sharoitlar yaratadi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichiga shaxs muayyan jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rish yoki uni yashirishni, mazkur jinoyatni keyinchalik sodir etish maqsadida amalga oshirgandagina huquqiy baho berish mumkin. Shunday ekan, shaxsning faraz qilingan jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida amalga oshirgan xatti-harakatlari aniq jinoyat sodir etish uchun qo‘llanishi aniqlanmaguniga qadar jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish sifatida baholanishi mumkin emas.

4. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida sodir etiladigan qilmishlar mazmuniga ko‘ra ikki turga, ya’ni *jinoyat sodir etishga shart-sharoit yaratishga qaratilgan qilmishlar* va *sodir etiladigan jinoyatni yashirishga qaratilgan qilmishlarga* bo‘linadi.

Jinoyatni sodir etish uchun shart-sharoit yaratishga qaratilgan qilmishlarga jinoyatni sodir etish vositasi yoki quollarini qidirib topish, bunday vositasi va quollarini yashash yoki moslashtirish, jinoyat sodir etiladigan joyni va vaqt ni o‘rganish, jinoyatni sodir etish imkoniyatlarini aniqlash, jinoyatni sodir etish vaqtida ko‘zlangan maqsadga erishishga xalaqit berishi mumkin bo‘lgan to‘sqliarni bartaraf etish choralarini ko‘rish, jinoyat ishtirokchilarini jalg‘ etish va boshqalarni kiritish mumkin.

Jinoyatni yashirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qilmishlarga jinoyat sodir etilganidan so‘ng jinoiy javobgarlikdan qutulish yoki jinoyatchini yashirish uchun shart-sharoitlarni yaratishga, jinoyat sodir etish vositasi va quollarini, shuningdek jinoyat izlari yoki ashyoviy dalillarni yashirishga tayyorgarlik ko‘rish bilan bog‘liq faoliyat va boshqalarni kiritish mumkin.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlarning to‘la ro‘yxatini berishning iloji yo‘q. Shu bois bunga qonunda umumiy tushuncha berilgan bo‘lib, u jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoxud mazkur qilmishni yashirish bo‘yicha barcha qilmishlarni qamrab oladi.

5. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishning yana bir belgisi (jihat) majburiy to‘xtatilganlik bo‘lib, u shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holatlar sababli muayyan jinoyat tarkibining obyektiv tomonini bajarishdan avval to‘xtatilganligini bildiradi.

Aynan mazkur jihat, ya’ni jinoiy qilmishning jinoyatning obyektiv tomoni boshlanishidan avval to‘xtaganligi jinoyatga tayyorgarlik

ko‘rishning jinoyat sodir etishga suiqasd qilishdan ajratishga imkon beradi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishga yo‘naltirilgan qilmishlar majburan, ya’ni subyekt xohish-irodasiga qarshi to‘xtatilgan bo‘lsa, u jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish deb hisoblanadi. Basharti tayyorgarlik harakatlari shaxs tomonidan ixtiyoriy va to‘laligicha to‘xtatilgan bo‘lsa, uning ushbu harakatlarida boshqa jinoyat tarkibi bo‘lmasa hech qanday huquqiy ahamiyatga ega bo‘lmaydi.

6. Sharhanayotgan moddaning ikkinchi qismida jinoyat sodir etishga suiqasd qilish tushunchasi belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, Jinoyat kodeksi maxsus qismida nazarda tutilgan muayyan jinoyat tarkibining obyektiv tomon belgilarini sodir etish boshlanadi hamda shaxsga bog‘liq bo‘lman holatlarga ko‘ra oxiriga yetkazilmaydi.

Jinoyat sodir etishning boshlanishi deganda, shaxs muayyan jinoyat tarkibining obyektiv tomonini tashkil qiluvchi qilmishlarni bevosita bajarishni boshlaganligi yoki bajarayotganligi tushuniladi.

Jinoyat sodir etishning boshlanishi jinoyat sodir etishga suiqasd qilish bosqichini jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichidan ajratish imkonini beradi. Masalan, jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladigan o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi muddalar yoki portlatish qurilmalarini tayyorlash deganda, ularni yasash yoki shikast yetkazish xususiyatlarini tiklash, shuningdek qandaydir ashyo (masalan, raketnitsa, start va qurilish pistoletlari)ni qayta ishlash natijasida ularni o‘qotar qurol xususiyatiga keltirish tushunilishi lozim. Ashyoga shikast yetkazish xususiyatlarini berishga qaratilgan harakatlar aybdorga bog‘liq bo‘lman holatlarga ko‘ra oxirigacha yetkazilmagan bo‘lsa, o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi muddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda tayyorlashga suiqasd qilish tariqasida kvalifikatsiya qilinmog‘i lozim¹. Mazkur xatti-harakatlardan avval sodir etilgan qilmishlar, ya’ni raketnisa, start va qurilish pistoletlarga ega bo‘lish, zarur asbob, metallar xarid qilish hamda izlab topish, ya’ni o‘qotar qurol yasash jarayonini boshlash uchun shart-sharoit yaratib beradigan xatti-harakatlar jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichiga kiradi.

7. *Shaxsga bog‘liq bo‘lman holatlarga ko‘ra oxiriga yetkazilmaganlik deganda*, shaxs tomonidan Jinoyat kodeksi Maxsus qismi

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Қонунга хилоф равиша куролга эгалик қилиш тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 1996 йил 27 февраль З-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. Биринчи жилд. – Т., 2006. – Б. 47.

moddasida nazarda tutilgan muayyan turdag'i jinoyat tarkibining obyektiv tomonini tashkil qiluvchi qilmishlarning to'la bajarilmaganligi yoki tamom bo'lgan jinoyatning obyektiv tomonini tashkil qiluvchi jinoiy oqibatlar yuzaga kelmaganligi tushuniladi.

Jinoyat sodir etishga suiqasd qilinganida jinoyatni sodir etish, uning rivojlanishi ixtiyoriy ravishda emas, aksincha, shaxsga bog'liq bo'lman holatlar sababli to'xtatiladi. Mazkur holatlar turlicha, biroq, albatta, shaxsga bog'liq bo'lman bo'lishi (muayyan turdag'i jinoyat tarkibining obyektiv tomonini bajarish vaqtida hibsga olish, jabrlanuvchining qarshilik ko'rsatishi, kutilmagan guvohlarning paydo bo'lishi, shaxs oldin ko'ra bila olmagan texnik to'siqlar va h.k.) kerak.

Mazkur belgi jinoyat sodir etishga suiqasd qilishni tamom bo'lgan jinoyatdan ajratish imkoniyatini beradi. Tamom bo'lgan jinoyatdan jinoyat sodir etishga suiqasd qilish muayyan turdag'i jinoyat tarkibining obyektiv tomonidan zaruriy alomatlarning bo'lmasligi bilan ajralib turadi. Masalan, o'zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyati mol-mulk mulkdorning egaligidan olingan hamda aybdor uni tasarruf etish yoki undan o'z xohishiga ko'ra foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi (bosqinchilik va tovlamachilik hollari bundan mustasno). Agar aybdor o'zganing mol-mulkini qo'lga kiritgan bo'lsa-yu, biroq hali uni o'z mulki sifatida tasarruf etish imkoniyatiga ega bo'lmasa, qilmish talon-toroj qilishga suiqasd tariqasida kvalifikatsiya etilmog'i kerak (bosqinchilik va tovlamachilik hollari bundan mustasno)¹.

8. Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish faqat qasddan sodir etiladigan jinoyatlarda bo'lishi mumkin. Chunonchi, shaxs formal tarkibga ega jinoyat sodir etishga suiqasd qilar ekan, muayyan jinoyat tarkibining bevosita obyektiv tomonini tashkil qiluvchi jinoiy qilmishni bajarayotganini anglaydi hamda ularni to'laligicha amalga oshirishni xohlaydi. Moddiy tarkibga ega jinoyat sodir etishga suiqasd qilishda esa, shaxs muayyan jinoyat tarkibining bevosita obyektiv tomonini tashkil qiluvchi jinoiy qilmishlarni bajarayotganini anglaydi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavfli oqibatlarni oldindan ko'radi hamda ularning vujudga kelishini xohlaydi.

9. Shaxsni o'z jinoiy maqsadining tugallanganlik darajasi haqidagi subyektiv tasavvuriga asosan suiqasd quyidagi turlarga bo'linadi:

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Жазоларни либераллаштириш тўғрисидаги қонунни иқтисодиёт соҳасидаги жиноятларга нисбатан қўллашнинг айрим масалалари ҳақида»ги 2004 йил 21 май 4-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. Иккинчи жилд. – Т., 2006. – Б. 170.

- 1) tamom bo‘lgan suiqasd;
- 2) tamom bo‘lman suiqasd;
- 3) «yaroqsiz» suiqasd.

Sharhlanayotgan moddada mazkur atamalar ishlatalmasa-da, Jinoyat kodeksi 58-moddasining birinchi qismida sud tamom bo‘lman jinoyat uchun jazo tayinlashda jazo tayinlashning umumiy asoslari bilan bir qatorda «jinoiy niyat amalga oshirilishining darajasi»ni ham hisobga olish zarurligi nazarda tutiladi. Bundan tashqari, qonunda belgilangan jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishdan kelib chiqqan holda (JK 26-m.) hamda jinoyat bir-birini inkor etuvchi ikkita sabab, ya’ni jinoyatning shaxsga bog‘liq bo‘lman holda oxiriga yetkazilmaganligi yoki shaxsning o‘z xohishiga binoan ixtiyoriy to‘xtatilganligi sababli tamom bo‘lmanligi bois, suiqasdni mazkur turlarga bo‘lish jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish masalasini to‘g‘ri hal etish uchun ham amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

10. Tamom bo‘lgan suiqasdda shaxs jinoyatni tugallash uchun zarur deb hisoblagan barcha qilmishlarni bajaradi, ammo unga bog‘liq bo‘lman holatlarga ko‘ra jinoyat oxiriga yetkazilmaydi. Masalan, shaxs o‘ldirish maqsadida ikkinchi shaxsga zahar berdi, biroq shifokorlarning sa’y-harakatlari tufayli jabrlanuvchining hayoti saqlab qolindi.

11. Tamom bo‘lman suiqasdda shaxs jinoyatning tamom bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan qilmishlarni o‘ziga bog‘liq bo‘lman sabablarga ko‘ra oxiriga yetkaza olmaydi. Masalan, nomusga tegish jinoyati jinoyat tarkibining obektiv tomoni sifatida nazarda tutilgan jinsiy aloqa qilishga qaratilgan harakatlar boshlangan paytdan, ular tugatilganligidan va kelib chiqqan oqibatlardan qat’i nazar, tamom bo‘lgan hisoblanadi¹. Shaxs nomusga tegish maqsadida jabrlanuvchiga zo‘rlik ishlatsa, biroq aybdorga bog‘liq bo‘lman sabablarga ko‘ra (boshqa shaxslarning kelib qolishi) jinsiy aloqa amalga oshirilmay qolsa, uning qilmishi tamom bo‘lman suiqasd sifatida baholanishi lozim.

Shunday qilib, tamom bo‘lman suiqasdga aybdor nafaqat muayyan jinoyat tarkibidagi obyektiv tomonning barcha zururiy alomatlarini bajar-maganligi, balki o‘ziga bog‘liq bo‘lman holatlarga ko‘ra o‘zi xohlagan natijaga erisha olmaganligini anglashi ham xosdir. Masalan, agar

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Номусга тегиш ва жинсий эҳтиёжни ғайритабиий усулда қондиришга доир ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 2010 йил 29 октябрь 13-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарори. – Т., 2010. – Б. 12.

shaxsning qasdi o‘zganing mulkini ko‘p (juda ko‘p) miqdorda egallahga yo‘naltirilgan bo‘lib, u aybdorga bog‘liq bo‘laman holatlarga ko‘ra, oxiriga yetkazilmagan bo‘lsa, qilmish haqiqatda talon-toroj qilingan mulk qiymatidan qat‘i nazar, qasd mazmunidan kelib chiqib, ko‘p (juda ko‘p) miqdordagi firibgarlikka suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak¹.

12. «Yaroqsiz» suiqasd deganda, shaxsning sodir etayotgan qilmishining faktik holatlariga nisbatan yanglishishi tushuniladi. «Yaroqsiz» suiqasd qilishning ikki turi farqlanadi: 1) «yaroqsiz» obyektga (predmetga) suiqasd qilish; 2) «yaroqsiz» vositalar bilan suiqasd qilish.

«Yaroqsiz» obyektga (predmetga) suiqasd qilinganida, undagi mavjud bo‘lgan alohida xususiyatlari yoki ularning umuman yo‘qligi bois unga ziyon yetkazish imkonи bo‘lmaydi. Shaxs esa, mazkur holatlarni to‘laligicha anglay olmaydi yoki ularga nisbatan yanglishadi. Masalan, agar aybdor tomonidan bila turib giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar niqobi ostida qandaydir boshqa moddalar o‘tkazilsa, sotilsa, bunday harakatlar firibgarlik sifatida, oluvchining harakatlari esa — giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni olishga suiqasd qilish tariqasida kvalifikatsiya qilinishi kerak². Bu yerda shaxs sotib olinayotgan predmetning xususiyati va sifatiga nisbatan yanglishib, «yaroqsiz» obyekt, aniqrog‘i, «yaroqsiz» predmetga suiqasd qiladi.

Oliy sud Plenumining boshqa qarorida: «Agar aybdor ishlatishga yaroqsiz bo‘lgan o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallagan va bunda ularning sifatiga nisbatan yanglishib yaroqli deb hisoblagan bo‘lsa, sodir etilgan qilmish jinoyatga suiqasd tariqasida kvalifikasiya qilinmog‘i lozim»³, deyiladi. Demak, mazkur holat «yaroqsiz» predmetga suiqasd qilish deb baholanishi kerak.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Фирибгарликка оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 2009 йил 24 июль 8-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарори. – Т., 2009. – Б. 24.

² Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилишга оид жиноят ишлари бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 1995 йил 27 октябрь 21-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. Биринчи жилд. – Т., 2006. – Б. 35.

³ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Қонунга хилоф равишда куролга эгалик қилиш тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 1996 йил 27 февраль 3-сонли қарорининг 5-банди // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. Биринчи жилд. – Т., 2007. – Б. 45.

Yana bir misol, Jinoyat kodeksining 296-moddasida harbiy mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazganlik uchun javobgarlik belgilangan bo‘lib, agar shaxs o‘z harakati bilan harbiy mulkni yo‘q qilayapman deb o‘ylasayu, haqiqatda esa mulk harbiy bo‘lmasa, qilmish harbiy mulkni nobud qilishga suiqasd deb baholanishi lozim.

«Yaroqsiz» obyektga suiqasd qilishni jabrlanuvchiga nisbatan yanglishish bilan bog‘liq holatlar ham tashkil qiladi. Masalan, shaxs odamni uning evaziga haq olinganidan so‘ng topshirish sharti bilan sotishga va’da berib, biroq azaldan uning qasdi moddiy qimmatliklarni egallahga qaratilgan va unda bitim shartlarini bajarish niyati bo‘lmagan hollarda uning harakatlari firibgarlik tarkibini tashkil etadi, oluvchining harakatlari esa sotib olish tariqasidagi odam savdosiga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim¹. Bu yerda shaxs haqiqatda mavjud bo‘lmagan jabrlanuvchini sotib olishga harakat qilib, «yaroqsiz» obyektga suiqasd qilgan.

Shu o‘rinda yana bir misolga to‘xtaladigan bo‘lsak, agar tasavvur qilingan pora mansabdor shaxs tomonidan olinmagan yoki olishdan bosh tortilgan bo‘lsa, pora berishga harakat qilgan shaxsning harakatini pora berish uchun suiqasd qilish kabi tavsiflash lozim bo‘ladi².

«Yaroqsiz» vositalar bilan suiqasd qilishda shaxs o‘zining obyektiv xususiyatlariga ko‘ra ko‘zlangan oqibatni keltirib chiqara olmaydigan vositalardan foydalanadi. Masalan, Jinoyat kodeksining 164-moddasi ikkinchi qismi «a» bandi bilan tavsiflanadigan bosqinchilik yo‘li bilan mulkka egalik qilishning belgilaridan biri quroq yoki quroq sifatida ishlatiladigan boshqa narsalarni qo‘llash hisoblanadi³. Agarda shaxs yaroqsiz o‘qotar quroldan foydalangan holda bosqinchilik jinoyatini sodir etsa va qurolning yaroqsizligini bilmagan bo‘lsa, uning qilmishini qurolli bosqinchilikka suiqasd qilish kabi tavsiflash lozim bo‘ladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Одам савдосига оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 2009 йил 24 ноябрь 12-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарори. – Т., 2010. – Б. 7.

² Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Порахўрлик ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 1999 йил 24 сентябрь 19-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. Биринчи жилд. – Т., 2006. – Б. 238.

³ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Ўзгалар мулкини ўғрилик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 1999 йил 30 апрель 6-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. Биринчи жилд. – Т., 2006. – Б. 222.

13. Jinoyat kodeksining Maxsus qismida belgilangan ayrim jinoyat tarkiblari jinoyat sodir etishga suiqasd qilishni o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lsa, bunday hollarda ushbu jinoyatni sodir etishga suiqasd qilish harakatlarini Jinoyat kodeksining 25-moddasi bilan qo‘srimcha tavsiflash talab qilinmaydi. Masalan, Jinoyat kodeksining 103-moddasi bo‘yicha aybdorning harakatini o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilgan hollarda Jinoyat kodeksining 25-moddasi bilan qo‘srimcha tavsiflash talab qilinmaydi, chunki Jinoyat kodeksining 103-moddasi o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazishni, shuningdek unga suiqasd qilishni o‘z ichiga qamrab oladi¹.

14. Sharhanayotgan moddaning uchinchi qismida Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rganlik va jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun javobgarlik ham Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tamom bo‘lgan jinoyat uchun javobgarlikni belgilovchi moddasiga muvofiq hal qilinishi belgilangan bo‘lib, unda tamom bo‘lman jinoyat uchun jinoiy javobgarlik belgilanganida nafaqat Jinoyat kodeksining tamom bo‘lgan jinoyatlar belgilarini nazarda tutuvchi Maxsus qismidan, balki tamom bo‘lman, ya’ni jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilishni nazarda tutgan Jinoyat kodeksining 25-moddasidagi qoidalardan ham foydalanish zararda tutilgan.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilish tamom bo‘lman jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka asos bo‘lib, u Jinoyat kodeksi 25-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida belgilangan. Shu sababli tamom bo‘lman jinoyatga huquqiy baho berishda Jinoyat kodeksi Umumiy qismining 25-moddasi tegishli qismlariga ham murojaat etish zarur. Mazkur modda tamom bo‘lman jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik tayinlashning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilishni kvalifikasiya qilishda Jinoyat kodeksi 25-moddasining birinchi va ikkinchi qismini hamda Maxsus qismdagi muayyan turdagи tamom bo‘lgan jinoyat nazarda tutilgan tegishli moddani qo‘llash zarur. Masalan, shaxs firibgarlik maqsadida qalbaki hujjatdan foydalangan, biroq unga bog‘liq bo‘lman holatlarga ko‘ra, o‘zganining mulkini ololmay yoki mulkka nisbatan huquqqa ega bo‘lolmay qolgan hollarda qilmish

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Ўзини ўзи ўлдириш даражасига етказиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 1998 йил 11 сентябрь 20-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. Биринчи жилд. – Т., 2006. – Б. 167.

jinoyatlar majmui tarzida JK 25-moddasi ikkinchi qismi, JK 168-moddasi va JK 228-moddasining tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim¹.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Фирибгарликка оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 2009 йил 24 июль 8-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарори. – Т., 2009. – Б. 24.

JINOYAT SODIR ETISHDAN IXTIYORIY QAYTISH

26-modda. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish

Shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish harakatlarini yoki jinoyat sodir etishga bevosita qaratilgan harakatlarni oxiriga yetkazish mumkinligini anglagan holda to‘xtatsa, shuningdek jinoiy oqibat kelib chiqishi mumkinligini anglagan holda, shunday oqibat kelib chiqishining oldini olsa, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb topiladi.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish javobgarlikni istisno qiladi.

Jinoyatni oxiriga yetkazishdan ixtiyoriy qaytgan shaxs, agar amalda sodir etgan qilmishida boshqa jinoyat tarkibining barcha alomatlari bo‘lsa, ushbu Kodeks bo‘yicha javobgarlikka tortiladi.

1. Shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish harakatlarini yoki jinoyat sodir etishga bevosita qaratilgan harakatlarni oxiriga yetkazish mumkinligini anglagan holda to‘xtatsa, shuningdek jinoiy oqibat kelib chiqishi mumkinligini anglagan holda uning oldini olsa, bu hol jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb topiladi.

Qonunda berilgan mazkur ta’rifga ko‘ra, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning quyidagi alomatlari (belgilari)ni ajratish mumkin:

– shaxs tomonidan jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish harakatlarining yoki jinoyat sodir etishga bevosita qaratilgan harakatlarning tugatilishi yoxud jinoiy oqibat kelib chiqishining oldi olinishi;

- jinoyat sodir etishning tamomila tugatilganligi;
- ixtiyoriylik;
- shaxs tomonidan jinoyatni tamomlash imkoniyatining anglanishi.

2. Birinchi alomat *muqobil xususiyatga* ega bo‘lib, obyektiv tomondan jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishdan iborat bo‘lgan, shaxs xulq-atvorining quyidagi turlarini o‘z ichiga oladi:

a) jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish harakatlarining to‘xtatilishi;

b) jinoyat sodir etishga suiqasd qilishdan to‘xtash, ya’ni muayyan tarkibli jinoyatning obyektiv tomonini tashkil qiluvchi jinoiy harakat (harakatsizlik)ni amalga oshirishdan voz kechish;

d) jinoiy oqibat kelib chiqishining oldini olish.

Dastlabki ikki holda jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytishni tan olish uchun shaxsning o‘zi sodir etishi kerak bo‘lgan harakatlarni to‘xtatishining o‘zi kifoya. Uchinchi holda shaxs jinoiy xatti-harakati oqibatida yuzaga kelgan sababiy bog‘lanishni tugatish uchun faol

harakatlarni amalga oshirishi hamda jinoiy oqibat kelib chiqishining oldini olishi shart.

3. Shundan kelib chiqqan holda, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning quyidagi ikki turini ajratish lozim:

birinchi tur sust (passiv) bo'lib, shaxs tomonidan jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoxud shaxs jinoyatni nihoyasiga yetkazish imkoniyatini anglagan bo'lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish harakatlarini to'xtatishdan iborat bo'ladi;

ikkinchi tur faol (aktiv) bo'lib, jinoyat sodir etilganidan so'ng shaxs jinoiy oqibat kelib chiqishi mumkinligini anglagan holda, shunday oqibat kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan harakatlarni o'z ichiga oladi.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning ikkinchi turi hali yuzaga kelmagan jinoiy oqibatning oldini olishga qaratilgan harakatdan iborat bo'ladi. Bu jinoiy qilmish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jinoiy oqibat orasidagi vaqt oralig'ida uzilish bo'lgan yoxud shaxs avval sodir etgan xatti-harakati (harakatsizligi) hamda kelib chiqishi mumkin bo'lgan jinoiy oqibat orasidagi sababiy bog'lanish rivojini kuzatayotgan hamda uning rivojiga ta'sir ko'rsata olgan hollarda bo'lishi mumkin.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishda sust (passiv) holat jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish bosqichlarida kuzatiladi. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishda faol holat faqat tamom bo'lgan suiqasd qilish hamda jinoyat oqibatlari darhol yuzaga kelmaydigan moddiy jinoyatlarni sodir etishda bo'lishi mumkin. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning faol shaklida shaxs jinoiy oqibatlarning oldini olishning uddasidan chiqa olsagina, jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Basharti shaxs barcha qilgan urinishlariga qaramay, o'zi sodir etgan jinoyatdan kelib chiqqan jinoyat rivojini to'xtata olmaganligi sababli jinoiy oqibat yuzaga kelsa, sodir etilgan qilmish jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb hisoblanmaydi.

4. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishdagi ikkinchi alomat *jinoyat sodir etishning tamomila tugatilganligi* hisoblanadi. Shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko'rish harakatlarini batamom to'xtatgan hamda ularni keyinchalik davom ettirmagan holatlardagina jinoyat sodir etish tamomila tugatilgan deb hisoblanishi mumkin. Binobarin, jinoyatni sodir etish vaqtincha keyinga surilgan yoki uni keyinchalik davom ettirish maqsadida vaqtincha to'xtatish jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb hisoblanmaydi. Jinoyatdan qaytish, shubhasiz, ixtiyoriy bo'lishi zarur.

5. Jinoyat sodir etishdan qaytishning uchinchi alomati uning *ixtiyoriyligi* hisoblanadi. Binobarin, shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko'rish

harakatlarini yoki boshlagan jinoyatini amalga oshirishni to‘xtatgan yoxud unga bog‘liq bo‘lman holatlarga ko‘ra emas, o‘z ixtiyoriga ko‘ra jinoiy oqibatlarning kelib chiqishining oldini olish maqsadida faol harakat qilsa, jinoyat sodir etishdan qaytish ixtiyoriy deb topiladi. Aksincha, agar jinoyatni sodir etishdan qaytish majburiy bo‘lsa, shaxsni jinoiy javobgarlikdan istisno etish asossiz bo‘lib, mazkur qilmish jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoki suiqasd qilish bosqichida majburan tamom bo‘lman jinoyat deb baholanishi kerak. Shaxsning jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishining sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, jabrlanuvchiga achinish va rahm-shafqat, jinoiy javobgarlik va jazodan qo‘rqish, jinoyatni yashirish mumkinligiga ishonmaslik, qilmishidan pushaymon bo‘lish va hokazolar, biroq, mazkur holatlar jinoiy javobgarlikni istisno qilish masalasini hal qilishda yuridik ahamiyatga ega bo‘lmaydi.

6. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning to‘rtinchi *alomati shaxs tomonidan jinoyatni tamomlash imkoniyatining anglanishi* hisoblanadi. Basharti shaxs jinoyat sodir etish vaqtida yengib bo‘lmaydigan to‘siqlarga duch kelishi yoki jinoyatni davom ettirish uchun zarur texnik vositalar bo‘lmasligi yoxud jinoyatni sodir etishga to‘sinqilik qiluvchi boshqa holatlarga uchraganligi sababli jinoyatni sodir etishdan qaytsa, uni ixtiyoriy deb hisoblab bo‘lmaydi. Zero, aybdor mazkur holatda jinoiy faoliyatni davom ettira olmasligi hamda uni nihoyasiga yetkaza olmasligini anglaydi, ya’ni boshlagan jinoyatini nihoyasiga yetkazishga xalaqit beruvchi u yoki bu holatlar bois, jinoyatni sodir etishdan noiloj qaytadi.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish alomatlarining majmui dastlabki jinoiy faoliyat uchun jinoiy javobgarlikni istisno etuvchi holat bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan alomatlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, shaxs tayyorgarlik ko‘rgan yoki suiqasd qilgan jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytgan hollardagina jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Xullas, jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytish to‘laligicha jinoiy javobgarlikni istisno etadi. Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, o‘zida boshqa jinoyat tarkibining alomatlariga ega bo‘lgan jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytishda jinoiy javobgarlik istisno etilmaydi. Masalan, agar shaxs jinoiy harakatlarini oxiriga yetkazishga imkoniyati bo‘la turib, nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiyy usulda qondirishdan ixtiyoriy ravishda va uzil-kesil voz kechgan bo‘lsa, qilmish voz kechish sabablaridan qat’i nazar, u haqiqatda sodir etgan harakatlar bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi,

basharti ularda boshqa jinoyat tarkibi (masalan, bezorilik, badanga shikast yetkazish, mulkni nobud qilish yoki unga zarar yetkazish va h.k.) mavjud bo‘lsa¹.

7. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishda shaxsning chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lishi, ya’ni shaxsning aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilishi, jinoyatni ochish uchun faol yordam berish hamda yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf etish kabi harakatlardan ajratish kerak.

Birinchidan, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish jinoiy javobgarlikni istisno qiluvchi holat ekanligi bois, shaxs xatti-harakatida jinoyat tarkibi, ijtimoiy xavflilik, qonunga xiloflik hamda aybdorlik bo‘lmaydi. Jinoyat sodir etishda chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish uchlamchi yuridik tabiatga ega bo‘ladi hamda quyidagilarda namoyon bo‘ladi: a) jazoni yengillashtiruvchi holatlar (JK 55-m. 1-q.); b) shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslari (JK 66-m.); d) shaxsni jinoiy jazodan ozod etish asoslari (JK 71-m.).

Ikkinchidan, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish jinoyat tamom bo‘lishiga qadar amalga oshirilishi mumkin. O‘z qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish shaxsning jinoyat sodir etilganidan keyingi xatti-harakatidir.

Uchinchidan, jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytish xulq-atvorning ham faol, ham sust shakllarida ifodalanishi mumkin, aybdorning o‘z qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lishi esa har doim faol xulq-atvordan iborat bo‘ladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Номусга тегиш ва жинсий эҳтиёжни ғайритабиий усулда қондиришга доир ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 2010 йил 29 октябрь 13-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарори. – Т., 2010. – Б. 14.

MAVZUGA OID MASALALAR

1. Fuqaro A. o‘zining kursdoshi B.ning erkiga xilof ravishda u bilan nikohda bo‘lish uchun o‘g‘irlashga qaror qildi. Ertasi kuni A. B.ni o‘g‘irlash rejasini tuzish maqsadida uni kun davomida kuzatib yurdi. Kechga yaqin fuqaro B. kimdir uni ta’qib qilib yurganligini sezib qoldi va darhol IIBga bu haqda xabar qildi. O‘tkazilgan tezkor tadbir natijasida fuqaro A. ushlandi.

- *Mazkur holatda qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang.*
- *Fuqaro A.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

2. Fuqaro I. ishdan qaytayotib mahallasidagi spirtli ichimliklar do‘koni oldida qo‘snilari V. va R.lar mast holda suhbat qurib turishganligining guvohi bo‘ldi va ularning suhbatiga qo‘sildi. Suhbat davomida qo‘snnisi V. shu mahalladagi 22-uyda istiqomat qiluvchi S. uyidagi temir qutida qonunga xilof ravishda o‘qotar qurol saqlayotganligini aytib qoldi. Shunda I. o‘zi avvaldan adovatda yurgan tanishi G.ni o‘ldirish maqsadida ushbu qurolni o‘g‘irlashga qaror qildi. Ushbu jinoiy niyatini amalga oshirish maqsadida u tunda qo‘snnisi S.ning uyiga tomorqa orqali kirib, temir sandiqni kalit tanlash yo‘li bilan ochishga bir necha bor uringanligiga qaramasdan uni ocha olmadi va temir sandiqni o‘zi bilan olib ketdi. Shundan so‘ng I. uyiga borib temir sandiq qulfini buzish orqali ochib, uning ichi bo‘sning amin bo‘ldi.

- *Mazkur holatda qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang.*
- *Fuqaro I.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

3. Guvoh V. dastlabki tergov davrida JKning 118-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan S.ga nisbatan yolg‘on guvohlik berdi. Mazkur jinoyat ishi sudda ko‘rilguniga qadar V.ning fikri o‘zgarib, sud muhokamasida ish yuzasidan haqiqatni aytib ko‘rsatma berdi. Ma’lum bo‘lishicha V. jinoiy javobgarlikdan qo‘rqanligi uchun sud muhokamasida dastlabki tergovda bergen ko‘rsatmasini o‘zgartirgan va haqiqatni bayon qilgan.

- *Mazkur holatda qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang.*
- *Fuqaro G.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

4. Fuqaro A. turmush o‘rtog‘i G.ning homilador ekanligini bilib, undan homilaning jinsini aniqlash uchun shifokorga murojaat qilishini so‘radi.

Ertasi kuni G. shifokorga murojaat qildi va homilaning jinsi qiz ekanligi ma'lum bo'ldi. G. ushbu xabarni turmush o'rtog'i A.ga aytganida turmush o'rtog'i unga uch nafar qiz farzandlari borligini, shuning uchun homilani oldirib tashlashini aytdi. G. bunga rozi bo'lmadi. Shundan so'ng A. har kuni ishdan mast holatda kelib, homilani oldirib tashlashi uchun turmush o'rtog'i G.ga ruhiy ta'sir o'tkaza boshladı. Bunday azoblarga chiday olmagan G. homilasini oldirib tashlashga rozi bo'ldi, ammo shu kuni G.ning ota-onasi bu haqda xabar topib, A.ga nisbatan tegishli chora ko'rishlarini so'rab IIBga murojaat qilishdi.

- *Mazkur holatda qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang.*
- *Fuqaro A.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

5. Fuqaro P. sinfdoshi A.ni bolalikdan yaxshi ko'rар edi, biroq bir necha marotaba A.ning uyigasovchi qo'yaniga qaramasdan rad javobini olardi. Kunlarning birida P. mast holda tun qorong'usida Bahor ko'chasi bo'yab ketayotgan vaqtida qo'shni qishloqda yashovchi dugonasining to'yidan yolg'iz qaytayotgan A.ni ko'rib qoldi va vaziyatdan foydalanib uning nomusiga tegishga qaror qildi. Ushbu niyatini amalga oshirish maqsadida A.ga nisbatan zo'rlik ishlatgan vaqtida A. unga qarshilik ko'rsatdi, biroq P. baquvvat bo'lganligi sababli A.ning qarshilagini yengib uni yerga yiqitdi va oyoq qo'llarini bog'lab qo'ydi. Ushbu holatdan qo'rqib ketgan A. P.dan uni qo'yib yuborishini so'rab yolvora boshladı. Fuqaro P. A.ning ko'zyoshlariga chiday olmay uni qo'yib yubordi va bu haqda hech kimga og'iz ochmasligini uqtirdi.

- *Mazkur holatda qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang.*
- *Fuqaro P.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

6. Fuqaro G. noqonuniy yo'llar bilan boylik orttirish maqsadida o'rtacha kattalikkagi ekin maydoni hisoblangan tomorqasiga kannabis o'simligi urug'ini sepati va urug'lar unib chiqishi uchun ularni parvarish qila boshladı. Biroq oradan bir oy o'tsada urug'lardan faqat yetti tupigina unib chiqdi. II Olari tomonidan o'tkazilgan «Qoradori» tadbiri natijasida fuqaro G. o'zining tomorqasida kannabis o'simligini yetishtirayotganligi aniqlandi va G. ushlandi.

- *Mazkur holatda qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang.*
- *Fuqaro G.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

7. Fuqaro CH. noqonuniy yo'l bilan boylik orttirish maqsadida yangi yil bayrami arafasida chet davlatdan juda ko'p miqdordagi pirotexnika

buyumlarini qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasiga olib kirdi va ularni uyining yerto‘lasiga joylashtirdi. Shundan so‘ng CH. ushbu pirotexnika buyumlarini bozorda yashirinchaligida sotayotgan vaqtida shu yerda xizmat olib borayotgan profilaktika inspektori tomonidan ushlandi. Mazkur holat yuzasidan olib borilgan tezkor surishtiruv tadbirlari natijasida CH.ning uyi yerto‘lasida juda ko‘p miqdorda pirotexnika buyumlari yashirilganligi aniqlandi. Biroq ekspertiza xulosasiga asosan mazkur pirotexnika buyumlarining yarmi yaroqsiz ekanligi ma’lum bo‘ldi.

- *Mazkur holatda qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang.*
- *Fuqaro CH.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

8. Fuqaro A. mast holatda tanishining to‘yidan uysiga qaytayotganida ko‘chaning boshida ilgaridan adovatda yurgan qo‘schnilari J. va F.larni ko‘rib qoldi va ularga e’tibor bermay yo‘lini davom ettirdi. Shunda J. va F.lar uning ortidan sha’ni va g‘ururiga tegadigan so‘zlar bilan haqoratlab uning jig‘iga tegishga harakat qilishdi. Bundan jahli chiqqan A. ularni o‘ldirish maqsadida uyidan ov miltig‘ini olib chiqib J. va F.larga qarata bir necha marotaba o‘q uzdi. Olingan tan jarohati natijasida J. voqealoyida vafot etdi, F. esa og‘ir tan jarohati bilan kasalxonaga yotqizildi.

- *Mazkur holatda qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang.*
- *Fuqaro A.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

9. Fuqaro SH. turmush o‘rtog‘i D.ning unga xiyonat qilayotganligini sezib qoldi va shundan so‘ng unga rahmsiz muomala qilar va uning sha’ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitib kelar edi. Bunday azoblarga chiday olmagan D. o‘zini o‘zi o‘ldirishga qaror qildi hamda ertalab turmush o‘rtog‘i SH. ishga ketganidan so‘ng daraza orqali o‘zini uchinchi qavatdan tashlab yubordi. Ushbu holatning guvohi bo‘lgan qo‘schnilari zudlik bilan tez tibbiy yordam chaqirishdi. Natijada D.ning hayoti saqlab qolindi.

- *Mazkur holatda qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang.*
- *Fuqaro SH.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

10. Jinoyat kodeksining 164-moddasi uchinchi qismi «b» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etishda ayblanib, ehtiyyot chorasi sifatida qamoqda saqlanayotgan B. sud muhokamasiga olib ketilayotgan vaqtida u olib ketilayotgan transport vositasi avtohalokatga uchradi. Soqchilarning hushsiz holdaligidan foydalanib B. voqealoyidan yashirindi. Biroq

oradan ikki kun o‘tgach qilmishidan pushaymon bo‘lib, o‘z xohishi bilan IIIga borib murojaat qildi.

- *Mazkur holatda qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang.*
- *Fuqaro B.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

11. Fuqaro G. mast holatda oldindan kelishmay yurgan qo‘snilari aka-uka X. va F.larni o‘ldirish maqsadida uyiga bostirib kirdi va o‘z xonasida uxlab yotgan X.ning badanining turli qismlariga bir necha bor oshxona pichog‘i bilan urdi. F. akasining xonasida qattiq shovqin bo‘layotganligini eshitib, xonaga kirganida G. uning ham badaniga bir marotaba pichoq sanchib oldi. F. G.ning yiqilib tushganligidan foydalanib, ko‘chaga yugurib chiqdi va boshqa shaxslarni yordamga chaqirdi. Ko‘rilgan choralar natijasida G. qo‘lga olindi. Tergov jarayonida fuqaro X.ning ko‘p qon yo‘qotishi natijasida o‘lim kelib chiqqanligi va F.ga og‘ir shikast yetkazilganligi aniqlandi.

- *Mazkur holat bo‘yicha qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang.*

12. Maktab direktori D. fuqaro M.ni o‘qituvchi lavozimiga ishga joylab qo‘yish uchun bir million so‘m mablag‘ so‘radi. M. olti yuz ming so‘m pulni olib kelib berdi va qolgan pullarni ikki haftadan keyin berishini aytdi. M. ushbu holat to‘g‘risida ichki ishlar idoralariga xabar berdi. O‘tkazilgan tadbir jarayonida maktab direktori D. fuqaro M.dan to‘rt yuz ming so‘m olayotgan vaqtida qo‘lga olindi.

- *Mazkur holat bo‘yicha qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang.*

13. Ichki ishlar idoralari xodimlari tomonidan fuqaro S. shaxsiy tintuv o‘tkazilayotganda uning ichki cho‘ntagidan maxsus qadoqlangan oq kukun (poroshok) modda topildi. Aniqlanishicha, fuqaro S. o‘zi iste’mol qilishi uchun fuqaro B.dan 0.5 gramm «geroin» giyohvandlik vositasini sotib olganligi to‘g‘risida ko‘rsatma berdi. O‘tkazilgan tergov harakatlari natijasida ushbu modda oddiy ohak (qurilish ashyosi) ekanligi ma’lum bo‘ldi.

- *Mazkur holat bo‘yicha qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang.*

14. Fuqaro Y. tunda dorixona eshigini kalit tanlash usuli bilan ochib, tarkibida giyohvand moddalari mavjud bo‘lgan dori vositalarini talon-

toroj qilayotgan vaqtida ichki ishlar idoralari xodimlari tomonidan qo‘lga olindi. Dastlabki tergov davomida Y.ning bu dori vositalarini sotish maqsadida talon-toroj qilganligi aniqlandi.

— *Mazkur holat bo‘yicha qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang.*

15. Fuqaro K. yetmish yoshli buvasi D.ning turar joyini egallash maqsadida uning ovqatiga hayot uchun o‘ta xavfli bo‘lgan zahar qo‘shib qo‘ydi. D. ovqatlangach o‘zini yomon his qila boshladi. K.ga buvasining og‘ir qiynalayotgani ta’sir qilib, rahmi kelganidan tez tibbiy yordam chaqirdi. D.ning o‘z vaqtida zarur tibbiy yordam ko‘rsatilishi natijasida hayoti saqlanib qolindi, lekin oshqozonida ikki santimetrik yara paydo bo‘lib, bitta buyragining faoliyati buzilib, oqibatida tamoman ishlamay qoldi.

— *Fuqaro K.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

MAVZUGA OID TEST TOPSHIRIQLARI

1. Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi tugallangan jinoyatlar normanining tuzilishiga ko‘ra qanday nomlanadi?

- a) yengillashtiruvchi tarkibli
- b) moddiy va formal tarkibli
- d) murakkab tarkibli
- e) og‘irlashtiruvchi tarkibli
- f) oddiy tarkibli

2. Formal tarkibli jinoyat qachondan boshlab tugallangan hisoblanadi?

- a) jinoiy oqibat yuzaga kelgan vaqtidan
- b) jinoyatga tayyorgarlik ko‘rilgan vaqtidan
- d) jismoniy zarar kelib chiqqan vaqtidan
- e) ijtimoiy xavfli qilmish bajarilgan vaqtidan
- f) moddiy zarar kelib chiqqan vaqtidan

3. Fuqaro E. do‘kon seyfida 5.000.000 so‘m pul bor deb o‘ylab, o‘g‘rilikka tushib, seyfni ochdi. Seyfda esa 6000 so‘m pul bor ekan. Jinoyat sodir etish bosqichi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) jinoyat sodir etishga suiqasd qilish
- b) jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish
- d) ko‘p obyektli jinoyat
- e) murakkab aybli jinoyat
- f) tugallangan jinoyat

4. Jinoyatni oxiriga yetkazishdan ixtiyoriy qaytishda javobgarlikka tortishga asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan holat qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) sodir etilgan qilmishda boshqa jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo‘lganda
- b) shaxs og‘ir jinoyat sodir etishni maqsad qilganda
- d) shaxs uncha og‘ir bo‘lмаган jinoyat sodir etishni niyat qilganda
- e) shaxs o‘ta og‘ir jinoyat sodir etishni maqsad qilganda
- f) shaxsning ilgari sodir etgan jinoyati uchun javobgarlikka tortish muddati o‘tib ketmaganligi

5. A.ismli shaxs bosqinchilik qilish maqsadida fuqaro B.ning boshiga temir truba bilan urib hushidan ketkazdi va narsalarini olish uchun cho‘ntaklarini titkiladi, lekin cho‘ntagidan hech narsa topa

olmadi. Ushbu holatda jinoyat sodir etish bosqichi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) jinoyat sodir etishga suiqasd qilish
- b) jinoyat sodir etishga sharoit yaratish
- d) jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish
- e) jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish
- f) tugallangan jinoyat

6. Jinoyat sodir etishni boshlash deganda nima tushuniladi?

- a) jinoyat izini yashirishga shart-sharoit yaratuvchi qilmish
- b) jinoyat sodir etishga shart-sharoit yaratuvchi qilmish
- d) jinoyatni obyektiv tomoni qilmishini bajarishga bevosita kirishish
- e) normada belgilangan oqibatlarning kelib chiqqanligi

7. Qaysi mezonlar asosida jinoyat sodir etish bosqichlari birbiridan farq qiladi?

- a) aybdor jinoiy niyatini amalga oshirish darajasi bilan
- b) jinoyat sodir etish joyiga qarab
- d) jinoyat sodir etish quroliga ko‘ra
- e) jinoyatning subyektiga ko‘ra
- f) shaxsning aqli rasoligi bilan

8. Qasddan jinoyat sodir etish qanday bosqichlardan iborat?

- a) asosiy va qo‘srimcha bosqichlar
- b) jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish, jinoyat sodir etishga suiqasd va tugallangan jinoyat
- d) ijtimoiy xavfli qilmish, jinoiy oqibat va ular o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish
- e) umumiy, maxsus(turdosh) va bevosita bosqichlar
- f) formal va moddiy bosqichlar

9. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish, aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligidan qanday farqlanadi?

- a) bu ikki holat bir xil ma’noni anglatadi
- b) jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asosi bo‘lsa, aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi esa jinoiy javobgarlikni istisno qiluvchi holatdir
- d) jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish jinoiy javobgarlikni istisno qiluvchi holat bo‘lsa, aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi esa jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asosidir
- e) jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytish jinoyatning obyektiv tomonining asosiy belgisi bo‘lsa, aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi esa jinoyatning subyektiv tomonining belgisidir

10. Jinoyat huquqida jinoiy faoliyatning rivojlanish bosqichlari qanday nomlanadi?

- a) jinoyat sodir etish vaqtি
- b) jinoyat sodir etish vositalari
- d) jinoyat sodir etish jarayoni
- e) jinoyat sodir etish usuli
- f) qasddan jinoyat sodir etish bosqichlari

11. Kasalxona qorovuli M. hamshiraning xonasidagi shkafda 5 ta ampula morfiy borligini bilib, kechqurun o‘g‘irladi. Keyinchalik aniqlanishicha bu oddiy analgin dorisi ekan. Jinoyat sodir etish bosqichi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) jinoyat sodir etishga suiqasd qilish
- b) jinoyat sodir etishga sharoit yaratish
- d) jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish
- e) jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish
- f) tugallangan jinoyat

12. Qasdni izhor qilish qanday bosqich hisoblanadi?

- a) javobgarlikdan ozod qilish turi
- b) jazodan ozod qilish turi
- d) jinoiy javobgarlikning asosi
- e) jinoyat sodir etish bosqichi
- f) jinoyatning rivojlanish bosqichi

13. Qasdni izhor qilishning amaliy ahamiyatlaridan biri qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) javobgarlikdan ozod qilishning turi hisoblanadi
- b) jazodan ozod qilishning turi hisoblanadi
- d) jinoiy va jinoiy bo‘limgan xulq-atvorni chegaralaydi
- e) jinoiy javobgarlikning asosi hisoblanadi
- f) jinoyat sodir etish bosqichi hisoblanadi

14. Jinoyatni sodir etish uchun shart-sharoit yaratishga qaratilgan qilmishlardan biri qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) jinoyatni boshlab oxiriga yetkazish
- b) jinoyatni sodir etish vositasi yoki quollarini qidirib topish
- d) qasddan jinoyat sodir etishni boshlash va oxiriga yetkazish
- e) murakkab aybli jinoyatni sodir etish
- f) ehtiyyotsizlik orqasida jinoyat sodir etish

15. Jinoyat huquqi fanida jinoyat sodir etishga suiqasd qilishning amalga oshirilganlik darajasiga ko‘ra turlaridan biri qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) bir necha harakatli suiqasd
- b) vositali suiqasd
- d) ko‘p qirrali suiqasd
- e) ochiqdan-ochiq suiqasd
- f) tamom bo‘lmagan suiqasd

16. Jinoyat huquqi fanida jinoyat sodir etishga suiqasd qilishning amalga oshirilganlik darajasiga ko‘ra turlaridan biri qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) bir necha harakatli suiqasd
- b) vositali suiqasd
- d) ko‘p qirrali suiqasd
- e) ochiqdan-ochiq suiqasd
- f) tamom bo‘lgan suiqasd

17. Tamom bo‘lgan suiqasdnинг belgisi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) shaxsning jinoiy o‘z-o‘ziga ishonishi orqali jinoyat sodir etishi
- b) shaxsning moddiy oqibat keltirib chiqaradigan jinoyat sodir etishi
- d) shaxsning o‘ziga bog‘liq barcha harakatlarni bajarishga ulgurmasligi
- e) shaxsning o‘ziga bog‘liq bo‘lgan barcha harakatlarni amalga oshirishi
- f) shaxsning ehtiyyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etishi

18. Tamom bo‘lmagan suiqasdnинг belgisi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) shaxsning jinoiy o‘z-o‘ziga ishonishi orqali jinoyat sodir etishi
- b) shaxsning moddiy oqibat keltirib chiqaradigan jinoyat sodir etishi
- d) shaxsning o‘ziga bog‘liq bo‘lgan barcha harakatlarni bajarishga ulgurmasligi
- e) shaxsning o‘ziga bog‘liq bo‘lgan barcha harakatlarni amalga oshirishi
- f) shaxsning ehtiyyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etishi

19. Yaroqsiz obyektga tajovuz qilish harakatlaridan biri qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) jinoyatni ehtiyyotsizlik orqasida sodir etish
- b) jinoyatni yashirin sodir etib, maqsadga erishish
- d) shaxs o‘z ijtomoiy xavfli qilmishni sodir etadi, lekin jinoiy obyektga hech qanday zarar yetkaza olmaydi
- e) yaroqsiz vositalar bilan suiqasd qilish

20. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning turlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) boshqa shaxslar tomonidan to‘siqning paydo bo‘lishi
- b) qilmishlarini anglamasdan qaytish
- d) majburan qaytish
- e) mastlik holatida qaytish
- f) faol va sust ixtiyoriy qaytish

ILOVALAR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDI PLENUMINING QARORLARI

Qonunga xilof ravishda quroqga egalik qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida

1996-yil 27-fevral

№ 3

Toshkent shahri

5. Agar aybdor ishlatishga yaroqsiz bo'lgan o'qotar quroq, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallagan va bunda ularning sifatiga nisbatan yanglishib yaroqli deb hisoblagan bo'lsa, sodir etilgan qilmish **jinoyatga suiqasd tariqasida kvalifikatsiya qilinmog'i lozim**.

8. O'qotar quroq, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini o'tkazish maqsadida qonunga xilof ravishda saqlangan, tashilgan, olingan bo'lsa, bunday harakatlar jinoyatga **suiqasd qilish tariqasida Jinoyat kodeksining 25 va 248-moddalari bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak**.

10. O'qotar quroq, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalari qonunga xilof ravishda boshqa jinoyatni sodir etish maqsadida egallangan, shuningdek tayyorlangan, olingan, olib yurilgan, saqlangan hollarda sodir etilgan qilmish tugallangan jinoyat (Jinoyat kodeksining 247 yoki 248-moddasi) va boshqa jinoyatni sodir etishga **tayyorgarlik tariqasida kvalifikatsiya qilinishi shart**.

O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida

1998-yil 11-sentabr

№ 20

Toshkent shahri

7. Jinoyat kodeksining 103-moddasi bo'yicha aybdorning harakatini o'zini o'zi o'ldirishga suiqasd qilgan hollarda Jinoyat kodeksining **25-moddasi** bilan qo'shimcha tavsiflash talab qilinmaydi, chunki Jinoyat kodeksining 103-moddasi o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazishni, shuningdek unga suiqasd qilishni o'z ichiga qamrab oladi.

Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida

2004-yil 24-sentabr

№ 13

Toshkent shahri

3. Qasddan odam o'ldirishga **suiqasd qilish** faqat to'g'ri qasd bilan sodir etilishi mumkin, chunki, bunda aybdor o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, jabrlanuvchining o'limiga ko'zi yetgan va uning o'limini istagan bo'ladi, biroq o'lim aybdorga bog'liq bo'lman holatlarga ko'ra (jabrdiydaning faol qarshiligi, boshqa shaxslarning aralashuvi, jabrlanuvchiga o'z vaqtida tibbiy yordam ko'rsatilganligi va h.k tufayli) yuz bermaydi.

Shu sababli, aybdorning jabrlanuvchini hayotdan mahrum etish niyatida harakat qilgan-qilmaganligini, o'lim yuz berishini istagan-istamaganligini va qanday holatlar istalgan natija yuz berishiga to'sqinlik qilganligini aniqlash zarur.

21. Qasddan odam o'ldirish jinoyatini takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan, deb kvalifikatsiya qilish uchun aybdor ilgari tamom bo'lgan qotillik jinoyati yoki odam o'ldirishga **suiqasd** sodir etganligining, jinoyatning bajaruvchisi yoki boshqa ishtirokchisi bo'lganligining ahamiyati yo'q.

Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida

2009-yil 24-iyul

№ 8

Toshkent shahri

17. Agar shaxsning qasdi o'zganing mulkini ko'p (juda ko'p) miqdorda egallashga yo'naltirilgan bo'lib, u aybdorga bog'liq bo'lman holatlarga ko'ra, oxiriga yetkazilmagan bo'lsa, qilmish haqiqatda talon-toroj qilingan mulk qiymatidan qat'i nazar, qasd mazmunidan kelib chiqib, ko'p (juda ko'p) miqdordagi firibgarlikka **suiqasd sifatida** kvalifikatsiya qilinishi kerak.

18. Shaxs firibgarlik maqsadida qalbaki hujjatdan foydalangan, biroq unga bog'liq bo'lman holatlarga ko'ra, o'zganing mulkini ololmay yoki mulkka nisbatan huquqqa ega bo'lolmay qolgan hollarda qilmish jinoyatlar majmui tarzida **JK 25-moddasi ikkinchi qismi**, JK 168-moddasi va JK 228-moddasining tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida

1999-yil 24-sentabr

№ 19

Toshkent shahri

5. Agar tasavvur qilingan pora mansabdor shaxs tomonidan olinmagan yoki olishdan bosh tortilgan bo'lsa, pora berishga harakat qilgan shaxsning harakatini pora berish uchun **suiqasd qilish** kabi tavsiflash lozim bo'ladi. Ammo pora berish va olish nafaqat mansabdor shaxsning o'zi uni olganida, balki uning ixtiyori yoki uning topshirig'i bo'yicha uni boshqa shaxslar qabul qilganida ham **tugallangan** jinoyat hisoblanadi.

15. Agar aybdor pora beruvchidan mansabdor shaxsga berish uchun deb pora tariqasida pul yoki boshqa boyliklarni olganida va bunday qilmishni xohlamasdan, ularni o'zlashtirib yuborganda, qilmish firibgarlik deb tavsiflanishi lozim. Pora beruvchining harakati bunday hollarda pora berishga **suiqasd deb** tavsiflanishi lozim bo'ladi. Bu o'rinda pora berilishi mo'ljallangan muayyan mansabdor shaxs aytilgan-aytilmaganligining ahamiyati bo'lmaydi.

Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida

2000-yil 15-sentabr

№ 23

Toshkent shahri

5.4.3. Jinoyat kodeksining 296-moddasida ko'rsatilgan jinoyat to'g'ri yoki egri qasd shaklida sodir etiladi. Bunday paytda aybdor shaxs mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazishni maqsad qilib qo'yadi yoki bunday oqibatlarning kelib chiqishiga, bila turib, yo'l qo'yadi. Aybdor boshqa biror mulkni emas, balki aynan harbiy mulkni nobud qilayotganini yoki unga shikast yetkazayotganini anglaydi.

Agar shaxs o'z harakati bilan harbiy mulkni yo'q qilayapman deb o'ylasayu, haqiqatda esa mulk harbiy bo'lmasa, qilmish harbiy mulkni nobud qilishga **suiqasd deb** baholanishi lozim.

Valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida

2000-yil 28-aprel

№ 8

Toshkent shahri

12. Agar qalbakiligi aybdorga ayon bo'lgan valuta qimmatliklari ko'rinishidagi, pul muomalasida qo'llanishini istisno qiladigan darajada haqiqiysiga ro'y-rost o'xshamaydigan kupuralar o'tkazilgan bo'lsa, shuningdek aybdorda jabrlanuvchini qo'pol ravishda aldash niyati bo'lganligidan guvohlik beruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lsa, bunday qilmish Jinoyat kodeksi 176-moddasining tegishli qismi bo'yicha tavsiflanib, Jinoyat kodeksining 168-moddasi (firibgarlik) bilan qo'shimcha tavsiflash talab qilinmaydi. Qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlarni olgan shaxsning qilmishi esa valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olishga **suiqasd sifatida** tavsiflanishi lozim.

Jazolarni liberallashtirish to'g'risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo'llashning ayrim masalalari haqida

2004-yil 21-may

№ 4

Toshkent shahri

4. O'zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyati mol-mulk mulkdorning egaligidan olingan hamda aybdor uni tasarruf etish yoki undan o'z xohishiga ko'ra foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan paytdan boshlab **tugallangan hisoblanadi** (bosqinchilik va tovlamachilik hollari bundan mustasno).

Agar aybdor o'zganing mol-mulkini qo'lga kiritgan bo'lsa-yu, biroq hali uni o'z mulki sifatida tasarruf etish imkoniyatiga ega bo'lmasa, qilmish talon-toroj qilishga **suiqasd tariqasida** kvalifikatsiya etilmog'i kerak (bosqinchilik va tovlamachilik hollari bundan mustasno).

Odam savdosiga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida

2009-yil 24-noyabr

№ 12

Toshkent shahri

3. Oldi-sotdi tariqasidagi odam savdosi odamning bir shaxs tomonidan boshqasiga pul, boshqa moddiy qimmatliklar (mulk), mulkiy xarakterdagи xizmatlar, mulkiy yoki pul shaklidagi qarzdan voz kechish va hokazolar sifatidagi haq evaziga berilishi to'g'risida yozma yoki og'zaki bitim tuzilishini nazarda tutadi. Bunday ko'rinishdagi odam savdosida odam qanday maqsadlarda sotib olinganligi (sotilganligi) huquqiy ahamiyat kasb etmaydi.

Shaxs odamni uning evaziga haq olinganidan so'ng topshirish sharti bilan sotishga va'da berib, biroq azaldan uning qasdi moddiy qimmatliklarni egallashga qaratilgan va unda bitim shartlarini bajarish niyati bo'limgan hollarda uning harakatlari firibgarlik tarkibini tashkil etadi, oluvchining harakatlari esa sotib olish tariqasidagi odam savdosiga **suiqasd sifatida** kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishga doir ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida

2010-yil 29-oktabr

№ 13

Toshkent shahri

8. Nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish jinoyati tegishli jinoyat tarkibining obektiv tomoni sifatida nazarda tutilgan jinsiy aloqa yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishga qaratilgan harakatlar boshlangan paytdan, ular tugatilganligidan va kelib chiqqan oqibatlardan qat'i nazar, **tamom bo'lgan** hisoblanadi.

Shaxsning harakatlarida tamom bo'lgan jinoyat tarkibi yoki faqat jinoyatga **suiqasd qilish** alomatlari mavjudligi to'g'risidagi masalani hal etishda, sudlar shaxs nomusga tegish yoki jinsiy extiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish maqsadida harakat qilgan-qilmaganligini, qo'llanilgan zo'rlik aybdorga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra amalga oshirilmay qolgan bunday maqsadga erishish vositasi bo'lgan-bo'limganligini aniqlashlari lozim.

9. Sudlar nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishga **suiqasdni** shaxsning jinoyatni sodir etishdan **ixtiyoriy qaytishidan** (JK 26-moddasi) farqlashlari lozim.

Agar shaxs jinoiy harakatlarini oxiriga yetkazishga imkoniyati bo‘la turib, nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiyy usulda qondirishdan ixtiyoriy ravishda va uzil-kesil voz kechgan bo‘lsa, qilmish voz kechish sabablaridan qat’i nazar, u haqiqatda sodir etgan harakatlar bo‘yicha kvalifikatsiya kilinadi, basharti ularda boshqa jinoyat tarkibi (masalan, bezorilik, badanga shikast yetkazish, mulkni nobud qilish yoki unga zarar yetkazish va h.k.) mavjud bo‘lsa.

M U N D A R I J A

SO‘ZBOSHLI.....	3
QASDDAN SODIR ETILGAN JINOYAT BOSQICHLARINING TUSHUNCHASI VA TURLARI.....	5
JINOYATGA TAYYORGARLIK KO‘RISH VA JINOYAT SODIR ETISHGA SUIQASD QILISH.....	20
JINOYAT SODIR ETISHDAN IXTIYORIY QAYTISH.....	29
MAVZUGA OID MASALALAR.....	33
MAVZUGA OID TEST TOPSHIRIQLARI.....	38
ILOVALAR.....	43

**Kuchkarov Turg‘un Raximbayevich,
Xaydarov Mirislom Mirdjabbarovich**

**JINOYAT HUQUQIDA TAMOM
BO‘LMAGAN JINOYAT**

O‘quv-amaliy qo‘llanma

Muharrir B. Ergashev
Texnik muharrir D. Djalilov

Bosishga ruxsat etildi 14.03.2016. Nashr t. 3,1.
Adadi 20 nusxa. Buyurtma .

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68.